

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

Tabiiy fanlar fakul'teti

«Geografiya o'qitish metodikasi» kafedrası

**5110500 - Geografiya o'qitish metodikasi bakalavr ta'lim yo'nalishi
4-b kurs talabasi Yuldashov Mansur O'ralbaevichning**

**«Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o'qitishda
zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish uslublari»**

mavzusida bakalavr

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi Nurlanov.A.S.

Kafedra mudiri :

p.f.n., dots. Gaipova R.T

NUKUS - 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I-BOB. MATERIKLAR VA OKEANLARNING TABIIY GEOGRAFIYASI KURSINI O`RGANISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.	
I.1. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining maqsadi va mazmuni.....	7
I.2. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini o`qitishning asosiy xususiyatlari.....	12
I.3. Materiklar geografiyasini o`qitishda bilim va ko`nikmalarni shakllantirish uslublari.....	17
II -BOB. MATERIKLAR VA OKEANLARNING TABIIY GEORAFIYASI FANINI O`QITISHDA ZAMONAVIY O`QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH USLUBLARI.	
2.1 Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	22
2.2. Materiklarning rel`efi va foydali qazilmalarini o`rganish metodikasi.....	25
2.3. Materiklarning iqlimi va ichki suvlvrini o`rganish metodikasi.....	29
2.4. Materiklarning tabiat zonalarini o`rganish metodikasi.....	40
Xulosa	48
Foydalangan adabiyotlar.....	50

K I R I Sh

Mavzuning dolzarbligi. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgandan so`ng mamlakatimiz kelajagini belgilaydigan yoshlarni tarbiyalaydigan ta`lim sohalarida yangi islohotlarni olib borish zarurligi davr talabi bo`lib qoldi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida “har qanday millat o`zining yer osti va er usti boyliklari, xarbiy qudrati va ishlab chiqarishi bilan emas, birinchi navbatda o`zining yuqori madaniyati va ma`naviy boyligi bilan qudratlidir” degan edi.

1997-yili 29-avgustda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida “Ta`lim to`g`risida” qonun va “Kadrlar tayorlashning milliy dasturi” qabul qilindi. Ta`lim sohalarida o`qitiladigan o`quv fanlarining mazmunini davlat ta`limi standartlari asosida qayta qo`rish talab etildi.

Shu jumladan geografiya fanini qayta qurishning ilmiy-metodik kontsepsiyasiga monand o`quv fanining kurslarga bo`linishi va mazmuniga o`zgarishlar kiritildi. Bu o`zgarishlar asosan ta`limning davlat siyosatidan holis bo`lishi, geografiya fanining tuzilishini va mazmunini mahalliy tabiiy xududlarga bog`liq o`rganishni taqazo etadi.

«...Bugun zamon o`zgarmoqda, uning talabi, oldimizga qo`yayotgan vazifalari tobora ortib bormoqda. Mana shunday murakkab sharoitda «sen-menga tegma, men- senga tegmayman» degan kayfiyat bilan ishlashning vaqti o`tdi. Biz «vaziyat yomon, vaziyat og`ir» deb bahona qidirishga o`rganib qolganmiz. Lekin shu vaziyatni kim o`zgartiradi, kim izga soladi, degan savolni, keling o`zimizga beraylik. »¹

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Mening Bu bitiruv malakaviy ishda davlat ta`lim standartlariga asosan materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasi

¹ Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundali qoidasi bo`lishi kerak” Toshkent: «O`zbekiston», 2017, -52b

fanini o`qitishda mahalliy tabiiy xududlarga bog`liq o`qitishning zamonaviy uslublarini takomillashtirish yo`llarini o`rganish maqsad etib belgilangan. Hozirgi kunda geografiya ta`limida hududiy qonuniyatlarini tadqiq etishda va tarmoqlarning rivojlanishi bilan bog`liq tushunchalar mazmunining o`zgarishiga olib kelmoqda.

Geografik atrof muhitni o`rganishning ahamiyati kuchaymoqda. Aholining qanaqa tabiiy geografik va iqtisodiy sharoitda yashashi uning turmushga hatto hulq atvoriga ham ta`sir qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Materiklar va okeanlar tabiiy geogafiyasi o`quv kursi ning maqsadi, o`quvchilarni tarbiyalashdagi ahamiyati, mazmuni, shakli va o`qitish metodlari.

Bitiruv malakaviy ishining obyekt. Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasining yangi dastur talabiga asosan o`qitishda ta`limning dasturiy metod va uslublari o`rniga zamonaviy pedagogik texnologiya uslublaridan foydalanib o`qitish.

Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasining oldingi materiklar va okeanlarning geografiyasi kursidan farqi yer tabiyatining bir butinligi va o`zgachaliklari muvofiqlashtirilgan holda bayon etiladi. Hozirgi materiklar va okeanlarning geografiyasini o`rganishda politexnik yo`nalishlarini ochib berish bilan egallagan bilim va tajribalarining amaliy ahamiyatini ko`rsatishni e`tiborga oladi. Bunda o`rganilayotgan mavzularining ahamiyatini tushinib ularga ekologik va iqtisodiy nuqtai nazaridan yondashishni kuchaytirishni taqazo etadi. Shu jumladan ta`lim jarenini aholi extiyoj zaruriyatiga bog`liq o`rganish o`quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Materiklar va okeanlar tabiiy geogafiyasi fanini o`qitishda o`quv tarbiyaviy jarayonida interfaol metodlarni tadbiq etish va boshqarishda quyidagi vazifalar belgilanadi

- Interfaol metodlarining mazmuni va mohiyatini aniqlash

- Ta'lim jarayonida interfaol metodlarini tanlash va ularni tadbiq etishning ahamiyati
- Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fani darslarida zamonaviy infarmatsion texnologiyalari ahamiyatini o'rganish
- Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fani darslarida qo'llanilgan interfaol metodlarni aniqlash
- Materiklar va okeanlar tabiiy geogafiyasi fanini o'qitishda o'qitishda interfaol metodlarni qo'llashda samaradorlikka erishishning ilmiy asosini shakllantirish

Bitiruv ishimning birinchi bobida Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasi fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari haqida bayon etdim. Ikkinchi bobida Materiklar va okeanlarning tabiiy georafiyasi fanini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish uslublari haqida bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayorlash Milliy dasturi», Xalq ta'limi vazirligining ta'lim samaradorligini oshirish borasidagi me'yoriy xujjatlari, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov, shuningdek, I.S. Matrusov, L.M. Pancheshnikova, M.V. Rijakov, O.A. Muminov, X.X. Xasanov, P.G. Musaev, A.M Ryabchikov, T.V. Vlasova, Q.Vaxabov, R.Qurbonniyozov, R. Gaypovalarning asarlarida ilgari surilgan ta'lim samaradorligini ta'minlash borasidagi qarashlari, pedagogik, metodik, tarixiy va falsafiy manbalarda bayon etilgan g'oyalar tashkil qiladi

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi va tadqiqot usullari. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini o'rganishda dastur talablariga hos o'rganishning boshqa fanlardan o'zgachalik tamonlarini ochib berib o'qitish metodlarining samarali natija berishi uchun yangi uslublarni o'rganib chiqdim.

Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasini o'rganishning modul tizimi uslublarni takomillashtirishda pedagogik texnologiya uslublarni joriy etish bilan o'quvchilarning faolligini oshirib ularning bilim va malakalarini holis egallashiga muvoffaq bo'lamiz.

Ishning hajmi va tarkibiy qismlari. Bitiruv malakaviy ishi 2 bob 6 bo'lim ish natijalari xulosasi va foydalanilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. MATERIKLAR VA OKEANLARNING TABIIY GEOGRAFIYASI KURSINI O`RGANISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

I.1 Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining maqsadi va vazifalari.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining maqsadi.

Bu kursni o`rganish quyidagi maqsadlarni o`z ichiga oladi:

-O`quvchilarda mavjud tabiiy geografik bilimlarga tayangan holda geografik qobiqning yagona TTK ekanligini, umumiy geografik qonuniyatlarni, sayyoramiz aholisida va ularning xo`jalik faoliyatida, inson bilan tabiat o`rtasidagi muhim aloqadorlik jarayonlarini materiklardagi yirik davlatlarni:

-tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi muammolarni, o`quvchilarda tabiat hodisalariga nisbatan to`g`ri ilmiy dunyoqarash shakllantirish:

- materiklarni kashf etgan, tadqiq qilgan sayyoh va olimlar faoliyatini, o`z vataniga muhabbat, dunyodagi barcha xalq va millatlar bilan hamdo`stlik, tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, nafosat tarbiyalarini singdirish;

-kursni o`zlashtirish uchun zarur bo`lgan tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kabi fikrlash usullarini o`quvchilarda shakllantirish;

Kurs mazmunini o`zlashtirishda qo`l keladigan zamonaviy metodlarni qo`llash va h.k.

Materiklar geografiyasi kursi mazmuni va tuzilishi.

Bu kursni o`rganish quyidagi maqsadlarni o`z ichiga oladi.

- O`quvchilarda bo`lgan tabiiy - geografik bilimlarga tayangan holda geografik qobiqning yakka T, T, K. ekanligini, umumiy geografik qonuniyatlarni, sayyoramiz aholisi va ularning xo`jalik ishlari, inson bilan tabiat orasidagi zarur bog`liqlik jarayonlarni.
- Tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi muammolarni, o`quvchilarda tabiat, hodisalariga qiyoslash ilmiy dunyoviy nuqtai nazarini shakllantirish.

- Materiklarni ochgan, tadqiq qilgan sayoxatchi va olimlar ishlarini, o`z vataniga muhavbat, dunyodagi barcha xalqlar va millatlar bilan do`stlikni, tabiatga mehr-muhabbatni tarbiyalashga o`rgatish.
- Kursni o`zlashtirish uchun zarur bo`lgan o`xshatish, biriktirish kabi o`ylash usullarini o`quvchilarda shakllantirish.
- Kurs mazmunini o`zlashtirishda mos keladigan zamonoviy metodlarni qo`llash v. x.k.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi maktab geografiyasi kurslari ichida erimiz tabiiy geografiyasini o`rganishni boshlab beruvchi birinchi regional predmet hisoblanadi. Bu kurs o`quvchilarda materiklar va ularning yirik qismlari haqida tasavvurni va tushunchalar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

5-sinfda egallangan qator yakka va umumiy tabiiy geografik tushunchalarni mustahkamlashadi va ularga tayangan holda qator Yangi tushunchalar tizimini hosil qilishda bu kursning ahamiyati katta. O`quvchilarning 5-sinfda iqlim, rel`ef haqida olgan umumiy tushunchalari kurs misolida yanada oydinlashadi va Yangi tushunchalar bilan boyitiladi.

Materikni o`rganish jarayonida qator Yangi tushunchalarni o`rganadilar. Masalan Afrika iqlimi mavzusida passatlar, izotermalar, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim mintaqalari, iqlimning vaqt o`tishi bilan o`zgarishi kabi qator Yangi tushunchalar tizimi bilan tanishadilar va ularni o`rganadilar.

O`quvchilar bu kurs misolida tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi murakkab aloqadorlik masalalarni chuqurroq o`rganishga kirishadilar.

Tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini tabiiy muhitning bevosita tashqi va ichki kuchlar ta`sirida o`zgarishini materiklar misolida bilib oladilar va o`rganadilar.

Materiklar va okeanlar geografiyasi inson xo`jalik faoliyatining qit`alari tabiatiga ta`sirini ham tadqiq qiladi.

Kursda o`quvchilarning mavjud kartografik tasavvur va tushunchalari yanada chuqurlashadi. Bu bilimlarning aksariyati ko`nikma va malakalar darajasiga etadi. O`quvchilar materiklar va okeanlar kartalarini o`qiy olish ko`nikmalariga ega bo`ladilar.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasida o`quvchilar quyidagi bilimlar tizimini egallaydi.

1. Har bir materikning tabiiy geografiyasi haqidagi tushunchalarni egallaydilar. Bular: geografik o`rin, materikning kattaligi, qirg`oq tuzilishi, rel`efi, iqlimi, tabiiy resurslari.

2. Har bir materikning faqat o`ziga xos xususiyatlarini uning boshqa materiklardan farqini tabiiy elementlari o`rtasidagi o`zaro aloqadorlikni.

3. Tabiat zonalari tabiiy geografik rayonlarini va ularga xos bo`lgan xususiyatlarini.

4. Materikni kashf qilgan va tadqiq etgan buyuk sayyoh va olimlar faoliyatini.

5. Sayyoramizdagi tabiiy geografik ob`ektlarni (dengizlar quruqliklar, bo`g`ozlar, tog`lar, yassi tog`lar tekisliklar va ularning hilma hil turlarini, orollar va yarim orololarni daryolar va ko`llarni) bilishlari zarur.

6. Dasturda berilgan geografik namenklatura nomlarini, faqat har bir materik uchun xos bo`lgan belgilarini esda saqlashi va ularni kartada topa olishlari kerak.

7. Yer sharidagi yirik davlatlarni, xalqlarni bilishi Dunyo siyosiy kartasi haqida tasavvurga ega bo`lishi kerak. Materiklar va tabiiy geografik rayonlarda istiqomat qiluvchi xalqlarning xo`jalik faoliyati haqida bilim va tasavvurlarga ega bo`lishi zarur.

8. O`quvchilar davlatlarni va ularning poytaxtlarini kartadan topa olishlari kerak. Hozirgi kundagi siyosiy kartadagi eng muhim o`zgarishlarni bilishlari kerak.

9. Materiklar tabiiy geografik xususiyatlari bilan bog`liq bo`lgan tushunchalarni (rel`ef tiplarini, tog`lar va tekisliklarning kelib chiqishi, materiklar rel`efining vaqt o`tishi bilan o`zgarishini, er iqlimlarini, erdagi iqlim hosil qiluvchi omillarni iqlim bilan rel`efning aloqadorligini, tabiiy va vertikal zonallikni, iqlim va geografik mintaqalarni, inson bilan tabiatning o`zaro aloqadorligi bilan bog`liq bo`lgan jarayonlarni tabiatning inson xo`jalik faoliyati ta`sirida o`zgarishini) egallashlari kerak.

10. Materiklar va okeanlarga oid bo`lgan kartografik bilim, ko`nikma va masalalarni egallaydilar. Kartalarni mazmuni va tematikasiga ko`ra ajrata olishi. Hilma hil kartadan foydalana olishlik kartalardan bilim manbai sifatida foydalana olishi. Geografik ob`ektlarga (maxsus rejalar bo`yicha) karta asosida ta`rif berishi. Alohida davlatlarni karta asosida ta`riflay olishi kerak.

Quyida Yevrosiyo materigi bo`yicha o`quvchilar egallagan zarur bilim va ko`nikmalarga qisqacha to`xtalamiz.

1. Yevrosiyoning geografik o`rni, qirg`oqlari, rel`efi va foydali qazilmalari, iqlimi ichki suvlari.

2. Yevrosiyoning iqlim va tabiat zonolari ekvatorial, subekvatorial, tropik, subtropik, mo``tadil, Arktika, subarktika iqlim mintakalariga xos bo`lgan eng muhim xususiyatlarni.

3. Yevrosiyo, tabiat zonalarining iqlimi, tuproqlari, o`simlik va hayvonat dunyosi haqida tasavvurga ega bo`lishlari.

4. Yevrosiyo xududidagi eng muhim tabiiy geografik ob`ektlarni; quyidagi ob`ektlar haqida tasavvur va tushunchalarga ega bo`lishi.

O`rta dengiz Bering dengizi va bo`g`ozi, Arabiston dengizi, Gibraltar bo`g`ozi, Bolqon, Arabiston, Hindiston, Hindixitoy yarim orollarini, Yaponiya, Indoneziya orollarini, sharqiy yevropa, g`arbiy Sibir` tekisliklarini, Al`p, Kavkaz, Pamir, Oltoy, Tyan`shan`, himalay, Kun`lun tog`larini, Vizuvi, Fudziyama, Klyuchi, Sopkasi, Krakatu vulkanlarini, Ob`, enisey, Lena, Volga, Gang, Yantseziy, Xuanxe, Tigr, Amudaryo, Sirdaryo, Dispr, Dnestr daryolarini,

Kaspiy, Orol, Baykal, Balxash, Issiqko`l, Zaysan ko`llarini, Gobt, Taklamakan, Qoraqum, Qizilqum cho`llarini.

5. Yevrosiyodagi eng yirik xalqlarni ularning qaerda yashashligini.

6. Siyosiy kartadagi quyidagi davlatlarni topa olishi: Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Eron, Afg`oniston, Hindiston, Koreya, respublikasi Indoneziya, Turkiya, Saudiya Arabiston, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Italiya va boshqalar.

Yirik shaxarlar: Tokio, Shanxay, Pekin, London, Parij, Dehli, Tehron, Istanbul, Jakarta, Moskva va h.k.

7. Yevrosiyo materigidagi passatlar, issiq va sovuq izotermalar, passatlarning yog`inlar taqsimlanishidagi rolini, tabiat zonalarini, tekisliklar va tog`lardagi tabiiy sharoitning o`zgarish sabablarini.

8. Tayyor rejalar orqali kartalar asosida materik rel`efini ta`riflay olishi materikning u yoki bu xududidan istalgan nuqtagacha bo`lgan masofalarni aniklay olishi, tematik kartalarni qiyoslay olishi. Oddiy iqlim grafiklari va diagrammalarini tushunishi va h.k.

9. Daryolar, dengizlar, ko`llarni eng oddiy rejalar asosida ta`riflay olishi.

10. Tabiat elementlari o`rtasidagi sabab alokadorlikni o`rnata olishlari va aniqlay olishlari talab etiladi.

Barcha materiklarni o`rganish quyidagi reja asosida o`rganilishi maqsadga muvofiq.

1. Geografik o`rni 2. Kattaligi. 3. Chegaralari. 4. Qirg`oqlari. 5. O`rab turgan dengiz va okeanlar. 6. Qisqacha kashf etilishi, tadqiq qilgan kishilari haqida. 7. Rel`efi va foydali qazilmalari. 8. Iqlimi. 9. Ichki suvlari. 10. Tuproqlari. 11. O`simliklari. 12. Hayvonat dunyosi. 13. Aholisi va siyosiy kartasi. 14. Materikning yirik tabiiy rayonlari yoki oblastlari.

I.2 Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasi kursini o'rganishning asosiy xususiyatlari.

Maktablarda o'qitiladigan materiklar va okeanlar geografiyasining mazmunini umumiy tabiiy geografik tushunchalar hududiy tabiiy geografiya va landshaftning ayrim xususiyatlari haqida tushunchalarni paydo etadi.

Kurs mazmunini har xil bilimlar tashkil etadi. Bular: Umumiy yer bilimiga tegishli bo'lgan tushuncha va atamalar, tabiiy hududiy komplekslari uning komponentlari tabiiy protsesslari va hodisalar, yer shari hududlarining tabiiy geografik ta'rifi, aholisi va uning xo'jalikdagi o'rni. Yer yuzi aholisining siyosiy kartadagi ma'lumotlardan iborat. Umumiy yer bilimiga tegishli ko'pchilik bilimlar materiklar va okeanlar kursida maktab geografiya kurslari mazmunida qatnashadi. Bu bilimlarning ko'pchilik qismi materiklar geografiyasida o'rganiladi. Bular iqlim, rel'ef, tabiat kompleksi, geografik qobiq tabiiy resurslar va boshqalardan iborat.

5-sinfning ko'pchilik tushunchalar mazmunining 6-sinfda yanada mustahkamlanadi. Bular shamol atmosfera yog'inlari, atmosfera bosimi, havo massalari, iqlim va boshqa tushunchalar asosida iqlim xususiyatlari, izotermalar, ekvatorial, subekvatorial, tropik iqlim mintaqalari singari tushunchalar qo'llaniladi.

Materiklar va okeanlar kursida umumiy geografik qonunlar bilan aloqada bo'lgan va alohida tabiat komponentlari xususiyatlarni o'zida paydo qiladigan bilimlar kerak. Bularga: rel'ef turlari joylashishi va rivojlanishi foydali qazilmalari, yog'in-sochin va harorat va geografik qobiqqa tegishli bo'lgan va umumiy aholi ahamiyatga ega bo'lgan umumiy geografik xususiyatlar kiradi. Maktab geografiyasida bu xususiyatlarning to'rttasi qatnashadi:

1. Geografik qobiqning bir butunligi
2. Moddalarning aylanma harakati.
3. Ritmlilik
4. Geografik zonallik.

Kurs mazmunining ko'pchilik bo'limi yakka tushunchalarni qamraydi. Masalan: Volga daryosi, Baykal ko'li, Pomir tog'i, Afrika, Avstraliya savannalri, Sharqiy Yevropa tekisligi va boshqalar. Materikning tabiiy xususiyatlari va ulardagi hududiy xususiyatlarini ajratish uchun katta hajmdagi geografik obektlarni, hodisalarni o'zlashtirish zarur bo'ladi. Lekin hududiy nazariy bilimlar bilan yakka tushunchalar miqdori jihatdan bir-biridan ko'payib ketmasligi kerak.

Yakka tushunchalar odatda u yoki bu hududlarning, obekt va hodisalarning xususiyatlarini ajratishda ishlatiladi.

Yakka tushunchalar umumiy tushunchalarni yanada aniqlashda va tarbiyaviy vazifalarini yechish uchun ham zarur. Shuning uchun kurs mazmunida yer sharidagi eng yirik daryolar haqida ma'lumotlar kiritilgan. Ularni ta'riflashda rejim, to'yinishi, yuqori rel'ef singari umumiy tushunchalar bilan to'ldiriladi. Bu yerda yakka va umumiy tushunchalar birikkan holda paydo bo'ladi.

Materiklar geografiyasini o'rganishda geografik o'zgarishlar, tekshirish metodlari haqidagi ma'lumot va materiallar katta ahamiyatga ega. Kartagrafik metodlar asosida o'nlagan ko'nikma va tajribalarni shakillantirish imkoniyatlari tug'iladi. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida rivojlantirishda ayrim bilimlar bu kursda yanada mustahkamlanadi.

Materiklar va okeanlar geografiyasini o'rganish bo'yicha yuqori tajribalar to'plangan. Ulardan unumli foydalanish har bir geografiya o'qituvchisining muhim vazifasi va burchi bo'lishi kerak. Hozirgi kunda dastur bo'yicha o'qitiladigan materiklar va okeanlar geogarafiyasi o'zining ichiga hududiy bo'limini, ya'ni materiklarning tabiiy geografik xususiyatlari va umumiy bo'lagini oladi.

Umumiy bo'lim tabiat komponentlari bo'lib umumiy qonunlarini tushunish va o'zgartirish uchun juda zarur hisoblanadi.

Maktab materiklar geografiyasi yuqori maktabdagi bu kursdan o'rganish tartibi bo'yicha bir qancha farq qiladi. Maktabda avval Afrika materigi, keyinroq janubiy yarim shar materiklari, so'ngida bo'lsa shimoliy yarim shardagi materiklar o'rganiladi. Kurs so'ngida tuzilishiga qarab murakkab va har xil tabiiy sharoitlarga

ega bo'lgan Yevrosiyo materigi o'rganiladi. Materiklarni bu tartibda o'rganish didaktik, sistematik, ilmiy yo'nalishlariga to'g'ri keladi.

Tabiiy muhit Afrika materigining shimol va janubiy bo'limlarida aniq ko'rinadi. Bu materik misolida atmosfera tsirkulyatsiyasi hodisalarini tushunib olish uchun ancha oson bo'ladi. Materiklar geografiyasining rejada berilgan ravishda o'rganilsa bilimni va ilmiy va pedagogik tarafdin puxta yaratish imkoniyatlari bir qancha kengroq bo'ladi. Barcha materiklarni o'rganish tartib dasturda bir xil berilgan.

Dasturda predmetlar oraliq aloqalarga alohida e'tibor berilgan. Asosan fizika, botanika, tarix fanlari bilan aloqada bo'ladi. Materiklarni tadqiq qilish kashf etish tarixiy bilimlarni talab etsa, atmosfera, gidrosfera, tsirkulyatsiyasi singari tushunchalar fizika bilan aloqada bo'ladi. Asosan kursni o'rganish tabiatning geografik boshlang'ich kurslarida egallagan bilim va ko'nikmalarga tayangan holda amalga oshiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarning shu kurslarda egallagan umumiy ma'lumotlarga tayanib bilim sifatida foydalaniladi. Masalan: Afrika materigi rel'efi o'rganishda 5-sinflardagi ma'lumotlar oqituvchi javoblarida ishlatilishi mumkin. Oqituvchilarning 5-sinfda karta bo'yicha ishlagan bilim va tajribalari materiklar va okeanlar geografiyasining barcha mavzularda ishlatilishi mumkin. Barcha mavzularda egallagan bilimlardan unumli foydalanish zarur.

O'qituvchilarning botanika kursida eng kerakli o'simliklarning sinflarini biladi. Tarix kursida esa eng qadimgi davlatlar Rim, Xitoy, Gretsiya, Misr, Hindiston va boshqa mamlakatlarning qisqacha geografik algebra, geometriya fanlarida har xil konuslar grafiklar ko'rinishida fazoviy ta'savvurlarga ega.

Materiklar va okeanlar geografiyasi mazmunining asosi materiklar va geografik obektlarga ta'rif berishni paydo qiladi. Bu obektlarga tegishli bo'lgan bilimlar umumiy geografik va mavzuli kartalarda ko'rsatilgan. 6-sinf kartalari o'qituvchilar uchun nafaqat ilmiy asoslar balki ko'nikma va tajribalarni murakkablashtirish uchun zarur bo'ladigan bilim asosi bo'lib hisoblanadi.

Bu kursda qo'llaniladigan kartagrafik qo'llanmalardan foydalanish dars o'tilishida eng yuqori metodlardan biri hisoblanadi. Sababi o'qituvchilar istalgan geografik obekt yoki hududga tarif berish uchun kartadan foydalaniladi.

Materiklar geografiyasini o'qitishda devoriy kartalardan yarim sharlar kartasi dunyo siyosiy kartasi mavzuli kartalar iqlim, o'simlik, tabiat zonalari, materiklar va ularning ayrim bo'limlari tabiiy kartasi keng qo'llanadi. Ayrim o'qituvchilar bilan ishlash uchun bo'lsa atlas kartalardan foydalanadi. Atmosferada barcha kartalar aniq berilgan.

Yozuvsiz kartalar ayrim materiklar uchun chiqarilmoqda. Darslarda ular bilan ishlashni umumlashtirish o'qituvchining asosiy vazifasi bo'lish kerak.

Materiklar va okeanlar geografiyasi juda ko'p miqdorda har xil ko'rgazmali qurollarga muhtoj. Bu kurs bo'yicha kino filmlar, vidofilmlar ko'p. Ko'pincha Afrika savannalari ekvatorial o'rmonlari bo'yicha o'nlab kinofilmlar bor. Dunyoning turli yerlariga tegishli voqealar o'zida ko'rsatgan taniqli fransuz okeanshunos olim Jak Iv Kusto kinofilmlaridan ko'rsatgan har bir darsda foydalanish mumkin.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi darslarida devoriy karta va rasmlardan foydalaniladi. Asosan "Yil vodiysida", "Chad bo'yida", "Nyasa ko'li". "Zambeziy sharsharasi", "Kongo ekvatorial o'rmonlar", "Pigmey qabilasi", "Afrika savannalar" kabi o'nlab, yuzlab, rasmlar bor, ularda geografik obekt va hodisalarning tashqi ko'rinishlari ko'rsatilgan.

Ayrim rasmlarda tipik landshaftlar ko'rsatilgan bo'lib ularda qumli cho'l, gulli cho'l, tashloq cho'l manzaralar berilgan, Ayrim rasmlarda o'simlik va hayvonlarning tashqi ko'rinishlari aniq ko'rsatilgan.

Materiklar va okeanlar geografiyasi kursini o'qitishda foydali qazilmalar kolleksiyalari va o'simliklar gerbariyalaridan unumli foydalanish zarur. Kursni o'qitishda o'qituvchilar ko'piroq so'zlashish metodlaridan foydalaniladi. Bu metod ko'proq kartalar bilan va ko'rgazmali qurollar bilan birgalikda ish olib boradi.

Suhbat metodi hududlarni, materiklarni qiyoslashda yakka va umumiy tushunchalarni aniqlashtirishda keng qo'llanadi.

Turli hududlarning o'xshash va farqlarini ajratishda ular o'rtasidagi aloqa o'rnatish tushuntirish metodida keng foydalaniladi. Bu metod obektlarni karta orqali tasvirlash imkoniyati bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

O'qituvchilarda obektlarning tashqi ko'rinishi hayolan poydo qilishda tasvirlash suhbatlar shu obektlarga tegishli bo'lgan umumiy geografik mazmundagi bo'limlarni o'qib berish va ishlatmasligi mumkin.

Afrika Lotin Amerikasidagi o'rmonlarni tasvirlashda musson iqlimining o'qituvchilarga yetkazish, daryolarni, sayohatchilar ishlarini tasvirlashda suhbat metodidan keng foydalaniladi. Barcha materiklarni o'rganishda suhbat metodi bilan o'tilgan darslarga o'qituvchilar yaxshi qatnashadi.

Materiklar geografiyasini o'qitishda reprodaktiv metod ya'ni bilimlarni tayyor rejalar asosida o'qituvchilarning mustaqil egallashi keng qo'llaniladi: ma'lum bo'lganidek materiklarga tabiiy geografik ta'rif berish yakka reja asosida amalga oshiriladi. Masalan: barcha materiklardagi daryolar va obektlar bir xil reja asosida o'rganiladi.

O'qituvchilar bir necha darslarni tayyor reja asosida (reprodaktiv) o'rganilishi ularni boshqa darslikni o'qitishi yordamisiz, uning qatnashishida o'rganilishi yaxshi natijalar berilishi tajribalarda dalillangan. O'qituvchilarning geografik obektlarni o'rgananda tayyor rejalar bilishga va ularni amalda qo'llashda bilimlarini mustaqil egallashda keng imkoniyatlar yaratadi

Eng ahamiyatlisi egallagan bilimlarni sistemali bo'lishini taminlashdir.

O'qituvchi Afrika materigini o'rgatishda o'qituvchilarni obektlarga tabiiy geografik ta'rif berish beish rejasi bilan tushintiradi. Bu reja darsdan darsga murakkablashib boradi. Kursni o'rganish so'ngiga borib o'qituvchilar bu rejalar bilan to'liq va mustaqil ishlay oladigan darajaga etadi. Bu o'qituvchilarning shu metod bo'yicha ishlay olish kuo'nikmalarini shakllantiradi.

Dasturda materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini o`qitishda amaliy ishlarni tashkillashtirish muhim masala hisoblanadi. Kursdagi ko`pgina amaliy ishlar o`kuv va geogafik ob`ektlar nomlarini esda saqlab qolish bilan bog`liq bo`lgan mashg`ulotlardan iborat. Amaliy ishlar mazmuniga qarab xar hil bo`lishi mumkin.

1. Materiklarning uzunligini chetki nuxtalai bo`yicha aniqlash.
2. Karta asosida materiklar tabiatini, iqlimini ko`z oldiga tasavvur qilish.
3. Yozuvsiz kartaga tag`larni, tekisliklarni va boshqa ob`ektlarni tushunrish.
4. Qiyoslovchi diagramma va jadval tuzish va ularni to`ldirish.

Masalan; Osiyodagi tog`larning balandligiga nisbatan jadval ko`rinishiga keltirish yoki evraziya materigini o`rab turgan dengizlarning chuqurliklari, muzlashi va boshqa xosiyatlariga qarab jadvalni to`ldirish.

So`ngi yillarda o`quvchilarning mustaqil va amaliy ishlarini birlashtiishda geografiya to`garaklaining ahamiyati kata. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasida qo`llaniladigan ta`lim metodlari har hil bo`lishi kerak.

Kursni o`qitishda aralash metodlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Materikdan mateiklarga o`tgan sari o`quvchilar bilimlari chuqurlashib boradi, ularning kartalarni ishlash borasidagi ko`nikma va tajribalari baland bo`ladi. Shu sababli materiklarga va uning bo`limlariga karta orqali kompleks tavsiflar yozish imkonlari yuqori bo`ladi. Bu kabi masalalar bilimdon o`quvchilarning tajribalarida kuzatilmoqda

I.3 Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasini o`qitishda bilim va ko`nikmalarni shakllantirish uslublari.

Materiklar geografiyasi kursi bilimlar xajmining ko`pligi va har hilligi bilan boshqa kurslardan ajiralib turadi. Kursta geografik tushinchalarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. O`quvchilarning tabiiy ob`ektlar va hodisalar haqidagi tushunchalar ikki gruxga ajratiladi.

1. Eslash tushunchalari.

2. Tushunchalar olish.

Bu kurs uchun ikkinchi tushunchalar ko`proq mos keladi. Sababi ba`zi o`rganiladigan geografik ob`ekt va hodisalarni o`quvchilar ko`rish, sezish imkoniga ega emas. Bunday vaqtda ko`rgazmali qo`llanmalar va o`quvchilarning jonli so`zi tushunchalarni paydo qilishda etakchi o`rinni egallaydi.

Biroq geografik ob`ekt va hodisalarning tashqi o`zgachaligi haqidagi bilimlar tushunchalar shakllantirish bilan bog`liq. Bular tabiat komponentlari, tipik tabiiy komplekslarning obrazlari, ularning kartadagi joylashish o`zgachaligi (kartografik tushunchalar) va h. k.

Vaqtga bog`liq bo`ladigan tushunchalar ham bor. Ob`ekt va hodisalarning bir hil belgilarini ajratish va ularning tarifini berish tushunchalar shakllantirish jarayonida amalga oshiriladi. Geografik tushunchalarni shakllantirish bir nechta bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich O`quv jarayoniga yangi tushunchalarni kiritish va uning ahamiyatli belgilarini ajratish masalan “Subtropik iqlim mintaqasi” tushunchasining belgilari birinchi marta “er rel`efi va iqlimi” mavzusida o`rganiladi. O`quvchilar ketma- ket Atmosfera bosimining hosil bo`lish sabablarini mavsum bo`yicha o`rganishadi. Shu sababdan havo massalarining tiplari va tarqalishi bilan tanishadi. Subtropik mintaqasi tushunchasiga bog`liq bo`lgan belgilarni, ya`ni ob-havoning issiq va quruq havo iliq va namli qish oyi ekanligini bilib oladi. Bu erda o`quvchilar faqat bu belgilarni egallaydi, yana, mavsumlar bo`yicha ularning obrazlarini ko`z oldilariga keltirishi kerak. Hatto havo massalarining almashinuvi sabablarini anglab etishi zarur.

Ikkinchi bosqichda tushunchalar mazmuni materiklar iqlimini o`rganishda yanada oydinlashadi. Afrika iqlimi mavzusida “Afrika quruqliqlarining o`rta dengiz iqlimi” yakka tushunchasini urganishda o`quvchilar Subtropik iqlim mintaqasiga tegishli bo`lgan belgilarining to`g`ri ekanligiga ishonchi hosil bo`ladi.

Afrikaning Janubiy subtropiklarini o`qishda bu tushunchalar mazmuni yanada chuqurlashadi. Avstraliya materigini o`qish jarayonida subtropik mintaqasining yana bir tipi kontinental iqlim bilan tanishadi. Janubiy, Shimoliy Amerika, evraziya materiklarini o`rganishda subtropik mintaqasiga kelib birlashadi. Natijada o`quvchilar bu tushunchalarning eng kerakli belgilarini mustaqil qiynalmasdan ayta oladigan bo`ladi.

Geografik ko`nikmalarni shakllantirish va tushunchalarni shakllantirishga o`hshab bir nechta bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda-bilim asoslari bilan ishlash usullari ko`rsatiladi va ishning maqsadi o`rgatiladi.

Materikler geografiyasida bu bosqich kursning birinchi mavzularidan amalga oshiriladi. Bunda o`quvchilarda ko`nikma hosil qilish bilan bog`liq bo`lgan harakatlar tuzilishi tushuntiriladi. Masalan~ atlasdagi, darslikdagi iqlim diagrammalarini o`qish va tahlil qilish ko`nikmasini shakllantirish uchun oldin diagrammalarning ahamiyati tushuntiriladi va o`quvchilar oldiga diagrammalar asosida iqlim tiplarini ajrata olish maqsadini qo`yadi. Keyin o`quvchilar topshiriqni qanday bajarish kerakligi bilan tanishadilar.

1. Yanvar` va iyul` oylarining temperaturasini aniqlang.
2. Ushbu diagrammadagi iqlim ma`lumotlari qaysi yarim sharga tegishli.
3. Iqlim kartasidan temperaturalarning mavsumlik amplitudasini aniqlang.
4. Mavsumlar bo`yicha yillik yog`in sochini aniqlang. Yog`inlar rejimi bo`yicha.
5. Temperaturalar va yog`in sochinlar rejimi asosida iqlim tipini aniqlang. Iqlim kartasidan shu xududni toping.

Ko`nikmani shakllantirishning ikkinchi bosqichida o`quvchilarning reprodaktiv faoliyati bosim keladi. Bunda o`quvchilar o`quv jarayonida o`zlarida bo`lgan bilimlarga tayanadi.

Masalan Avstraliya iqlimini o`rganishda o`quvchilarda iqlim diagrammalari bo`yicha iqlim tipini aniqlash vazifalari topshiriladi. Bunda ular diagramma tahlilida ko`nikmani egallash jarayonini mustaqil ishlaydi. Ko`nikmani egallashda o`quvchining yordami va aralashi derlik bo`lmaydi.

Ko`nikmalarni egallashning birinchi bosqichida o`quvchilarning qobiliyati biroz o`sadi. Diagrammalarni mustaqil tahlil qiladi. Ko`nikma egallashning bu bosqichida ikki va undan ortiq diagrammalarni qiyoslashi orqali iqlim tiplarini belgilay olish imkoniga ega bo`ladilar.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi mazmuni materiklar va ularning ob`ektlari va shu xududlardagi tabiiy komponentlarga tarif berishni etiborga olib, o`quvchilar ob`ektlarga ta`rif berish rejalarini egallashlari maqsadga muvofiqdir.

Kuyidagi ayrim ob`ektlarga ta`rif berish rejalarini keltiramiz

Materikning geografik o`rni va kattaligi.

1. Materikning ekvatorga nisbatan joylashuvi, chetki nuktalari koordinatlari.
2. No`linchi meridianga nisbatan joylashuvi. chetki nuktalari koordinatlari.
3. G`arbdan sharqqa va shimoldan janubga uzunligi km va daraja hisobida.
4. Hududning kattaligi, materik konfiguratsiyasini baholash.
5. Materik atrofidagi okean va dengizlar tuzilishi.
6. Boshqa materiklarga nisbatan joylashuvi.
7. Geografik o`rning materik tabiiy o`zgachaliklariga ta`sirini baholash.

Materik reliefini ta`riflash va uning shakllanishi.

- 1 Materik rel`efining qanday formalari ko`proq. Eng past, o`racha, maksimal balandliklarni belgilang.
2. Materik xududi bo`yicha rel`ef shakllari joylashuvidagi o`zgachaliklarini aniqlang.
3. Yirik rel`ef shakllari yer qobig`ining qanday bo`limlariga to`g`ri keladi? Ularning jinsi qanday?
4. Materikdagi tog`lar, tekisliklar, past tog`likla qanday guruxlarga ajratiladi?
5. Yirik rel`ef shakllarining paydo bo`lish jarayonini ajrating.
6. Yirik rel`ef shakllarining tashqi belgilarini ajrating.

Materik iqlimiga ta`rif,

1. Iqlim hosil bo`lish omillarining tahlili.

a) Kenglikning ta`siri.

- b) Qurshab turgan dengiz, okean, okean oqimlarining ta`siri.
 - v) Materik o`rnining atmosfera umumiy tsirkulyatsiyasiga ta`siri ustamlilik etuvchi, havo massalari, ularning o`zgachaligi yonalishi.
 - g) Rel`efning temperatura va yog`in-sochinlar bo`listirilishiga ta`siri.
2. Materik xududida yog`in-sochinn va temperaturalar taqsimlanishida rel`efning roli.
 3. Materik qaysi iqlim mintaqasida joylashgan.
 4. Iqlim mintaqalariga ta`rif.
 - a) Materik bo`limlari qaysi iqlim mintaqasida joylashgan.
 - b) Yoz va qishdagi temperatura.
 - v) Yillik yog`in-sochin miqdari va ularning mavsum bo`yicha taqsimlanishi.
 - g) Iqlim mintaqasidagi ichki o`zgachaliklar.
 5. Iqlim o`zgachaliklari haqida umumiy tushunchalar.

Tabiiy rayonlar T, T, K,larga ta`rif.

1. Geografik o`rni va uni baholash.
2. Rel`efi uning er qobig`i tuzilishi bilan bog`liqligi.
3. Hududining foydali qazilmalari.
4. Iqlim o`zgachaliklari. Iqlim hosil qiluvchi omillar.
5. Ichki suvlari uning rel`ef va iqlimiga bog`liqligi.
6. Tuproq.o`simlik o`zgachaliklari.
7. Hayvonot dunyosi.
- 8 Aholisi.

O`larning etnik o`zgachaliklari, aholi turmushi tarizi, xo`jalik faoliyati

Biz materiklar gegrafiyasida geografik ob`ektlarning ta`siriga ta`rif rejalarini keltirdik. Kurs mazmuninda bunaqa rejalarini o`ylab keltirish mumkin. Maslanyu tabiat zonalari ichki suvlari, rejalari va h.k. Bunday rejalar asosida o`quvchilar mustaqil ishlash kunikmalariga ega bo`ladi.

II -BOB. MATERIKLAR VA OKEANLARNING TABIIY GEORAFIYASI FANINI O`QITISHDA ZAMONAVIY O`QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH USLUBLARI.

2.1 Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o`quvchilarning o`quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta`lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo`llashga doir katta tajriba to`plangan bo`lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Bu kabi metodlar o`z mohiyatiga ko`ra «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» fani bo`yicha ta`lim oluvchilarda o`quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o`rganilayotgan mavzu, muammolar bo`yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o`z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g`oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag`batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta`lim va tarbiya jarayonida o`qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o`rinli, maqsadli, samarali qo`llanilishi ta`lim oluvchi (o`quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g`oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog`liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Hozirgi kunda 80 dan ortiq interfaol metodlar, ularning mohiyati va qo`llanilishi to`g`risida so`z yuritilgan.


“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, lug`aviy nuqtai nazardan “inter” – o`zaro, ikki taraflama, “akt” – harakat qilmoq, ish ko`rmoq kabi ma`nolarni anglatadi

Interfaol ta`lim – ta`lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko`nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o`zlashtirish yo`lida birgalikda, o`zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta`lim

Interfaollik ta`lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko`nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o`zlashtirish yo`lida birgalikda, o`zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Yuqoridagi savollarga javob topishda eng to'g'ri qadam tayanch tushuncha – “interfaol” atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishishdir.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:



An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchilarga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchilar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

An'anaviy ta'limdagi bir tomonlamalik maktablardagi faqat ma'ruza mashg'ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra, “yetkazib beruvchi” ro'lida endi o'qituvchi emas, balki o'quvchi namoyon bo'ladi. O'quvchi, asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladi.

O'quvchi lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda o'quvchi yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun

bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taasurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi.

Ya'ni shaxs: manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.

Shunga ko'ra interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab- quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi"².

O'quvchilarning Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi infarmatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Respublikamizdagi ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimiga yangicha qarashni, uni jamiyat talablari va shaxs ehtiyojini hisobga olgan holda

² Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Методик қўлланма. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012. – 122-бет.

jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishda rivojlangan davlatlarning ilg'or pedagogik tajribalaridan kengdan foydalanishni taqazo etmoqda.

Demak, geografiya fani yangi talim texnologiyalarini qo'llash uchun juda katta imkoniyatlarga ega, ammo mazkur texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy-metodik ishlar boshqa fanlarga nisbatan sust olib borilmoqda.

2.2. Materiklarning rel'efi va foydali qazilmalarini o'rganish metodikasi.

Rel'ef xaqida tushunchalar bilan o'quvchilar 5 sinfdan boshlab tanishadi. Materiklar rel'efiga mos bo'lgan ba'zi bilimlar materiklar rel'efini o'rganishda yanada murakkablashadi. O'quvchilarning rel'ef kartasini o'qish ko'nikma va tajribalari bu kursda yana murakkablashadi.

O'quvchilar materiklar rel'efini o'rganishi orqali kuyidagilarni egallashi kerak.

1. Har bir materik rel'efiga mos bo'lgan umumiy o'zgachaliklarni bilishi va ajrata olishi.
2. Materik rel'efining shakllanish jarayonlarini bilishi.
3. Materik tabiiy kartasinda tog` tizmalari past tog`lar, tekisliklar va boshqada rel'ef shakllarini topa olishi.
4. Materiklar rel'efini solishtira olishi va har bir materik rel'efiga mos bo'lgan tipik o'zgachaliklarini ajrata olishi.
5. Materik rel'efini yozuvsiz kartalarga tushira olishi.
6. Materik rel'efining tashqi ko'rinishlariga mos tushunchalar hosil qilish va h.k.

Yer yuzida materiklar rel'efini o'rganish asosida savol javob tarzida o'rinlanishi amalga oshirilishi yaxshi natijalar beradi. Bunda o'quvchilar o'qituvchi savollari asosida materiklar rel'efiga mos bo'lgan umumiy o'zgachaliklarni u yerdagi tog` tizmalarini materikdagi cho'qqilarni aniqlaydi. Keyin materiklar rel'efining hosil bo'lishiga mos bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishadi. Bu erda yer shari tektonik kartasini tahlil qilish va ko'rib chiqish

maqsadga muvofiqdir. Rel`ef o`zgachaliklarini aniqlash bo`yicha beriladigan topshiriqlar jadvallar tarzida berilsa ular egallaydigan bilimlarning sistemali bo`lishiga yordam beradi.

Keyin o`quvchilar to`plangan ma`lumotlarni boshqa materiklar bilan qiyoslash rel`ef xaqida bilimlarni yanada osonlashtirishga yordam beradi. O`qituvchi o`quvchilar to`plagan materiallarni birlashtirib materikdagi tog`lar va tekisliklardagi kerakli o`zgachaliklarni topadi. Ayrim hollarda shu erdagi o`simliklar va hayvonot dunyosini, daryo va ko`llarni aholining xo`jalik turmushi tomonidan o`rganadi. Bu materikdagi tog` va tekisliklarning tashqi dunyosi xaqida tushunchalarga basharot qilish imkoni tug`iladi.

Tog`lar va tekisliklarni og`zaki bayon qilishda ularni rel`ef shakllariga mos bo`lgan rasmlarni ko`rsatish, ularga tegishli bo`lgan o`zgachaliklarni yanada oydinlashtirishga yordam beradi. Materiklar rel`efini o`rganish jarayonida o`quvchilar har hil amaliy mashg`ulotlarni bajaradi. Bunday mashg`ulotlar rel`ef kartalari mazmunini o`rganishda birmuncha engillashtiradi. Amaliy ishlarning bir bo`limini yozuvsiz kartada bajaradigan topshiriqla tashkil etadi.

O`qituvchi amaliy ishlarning ayrimlarini o`quvchilarga tayyor javoblardagi savolga javob izlashi tarzida berishi mumkin. Tog` va tekisliklarga reja asosida ta`rif yozish o`quvchilarga tabiiy geografiya boshlang`ich kursida tanishali. Bunday rejalarni birinchi materikni o`rganishdanoq o`quvchilarga aytib ketish maqsadga muvofiqdir. Tog`lar va tekisliklarga reja asosida ta`rif yozish o`z ichiga quyidagi ma`lumotlarni olishi mumkin.

Ular materikdagi etakchi rel`ef shakllari dengiz satxidan eng yuqori va eng past erlarni tog`larning va tekisliklarning yo`nalishi, kelib chiqishi tog`larning va tekisliklarning balandligiga nisbatan qiyoslash, yer yuzi shakllari, foydali qazilmalari kabi savollarni o`z ichiga olishi mumkin.

Materiklar geografiyasida barcha materiklarning foydali qazilmalari bilan tanishgandi. O`qituvchi bu materiallarni yoritganda u yoki bu materikning foydali qazilmalari bilan ta`minlanganlik darajasini aytishi yoki shu materik qaysi foydali

qazilmalar bo'yicha etakchi o'rinda turganini aytib o'tish zarur. Materiklar foydali qazilmalarni o'rganishda o'quvchilar kuyidagi jadvalni kartalar asosida mustaqil to'ldirishi yaxshi natija beradi.

Materik foydali qazilmalari

Jadval № 1

Foydali qazilmalar nomi	Konlar materikning qaysi qismida uchraydi.	Dunyo ahamiyati.	miqyosidagi
-------------------------	--	------------------	-------------

O'qituvchi o'quvchilarda tushunchalar hosil qiladigan foydali qazilmalarni ko'rsatish yoki ularning rasmlarini ko'rsatishi yahshi natijalar beradi.

Materiklarning foydali qazilmalar bilan ta'minlanganlik darajasiga nisbatan qiyoslash, foydali qazilmalarni o'rganishni uyinlar tarzida tashkillashtirish yaxshi natijalar beradi. Buning uchun foydali qazilmalarni aylanma tarzidagi shartli belgilari tayyorlanadi va ular stolga chap tamoni bilan quyiladi. Hohlagan o'quvchilar chiqib bu shartli belgilarni 5 tadan oladi va bu foydali qazilmalarning qaysi materiklarda uchrashi ularning dunyoda tutgan urniga ta'rif beradi.

Kim ko'p, to'g'ri javob bersa o'sha o'quvchi o'tgan hisoblanadi. Materiklar rel'efi va foydali qazilmalarini o'rganishda eng mos keladigan metodlar savol-javob, suhbat, fikr olishish, qiyoslash metodlari etakchi o'rinni egallaydi.

Ma'ruza. Afrika materigi tektonik tuzilishi, relyefi va foydali qazilmalari ma'ruzasi ta'lim texnologiyasi.

Vaqt – 2 soat	O'quvchilar soni 30 nafar
O'quv mag'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha muammoli mashg'ulot.
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Afrika materigi tektonik tuzilishi, platforma va plitalarning xosil bo'lishini o'rganish. 2. Afrika relyefi tiplari va ularning xududiy joylanish hususiyatlari. 3. Afrika materigi foydali qazilmalari va inson faoliyatiga ta'sirini o'rganish.

<p>O'quv mashg'ulotining maqsadi: Afrika materigi tektonik tuzilishi, platforma va plitalarning hosil bo'lish xususiyatlarini ochib berish, reliefi tiplari va ularning hududiy joylanish xususiyatlari hosil bo'lishi sabablarini va asosiy omillarini aniqlash, materikning foydali qozilmalari xududiy taqsimlanishini tahlil qilish va foydali qozilmalarning inson faoliyatiga ta'sirini aniqlash.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar: O'qituvchi: - Afrika materigi tektonik tuzilishi va hosil bo'lish jarayonlari bo'yicha bilimlarni mustah'kamlash; - Platforma va plitalarning materik bo'yicha tarqalishi va joylashish xususiyatlarini o'rgatish; - Afrika reliefi tiplari va ularning xududiy joylanish xususiyatlari xaqidagi ko'nikmalarini rivojlantirish; - Afrika materigida foydali qozilmalari va inson faoliyatiga ta'siri bilan tanishtirish.</p>	<p>O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Afrika materigi tektonik tuzilishi bo'yicha bilimlarni qo'llash; - Platforma va plitalarning materik bo'yicha tarqalishi va joylashishi bilan tanishish; - Afrika reliefi tiplari va ularning xududiy joylanish xususiyatlari xaqida malumotga ega bo'lish; - Afrika materigida foydali qozilmalarning turlari, joylashishi va ulardan samarali foydalanishning tartibini aniqlash;</p>
O'qitish usullari va texnikasi	Muammoli usul, aqliy h'ujum, blits-so'rov.
O'qitish vositalari	O'quv fani bo'yicha o'quv metodik majmua, jadvallar.
O'qitish shakli	Kichik guruh'lar va juftliklarda ishlash.
O'qitish sharoitlari	Namunadagi auditoriya.
Monitoring va bah'olash	Og'zaki va yozma nazorat: Natijalar tekshiriladi va bah'olanadi.

1. Materiklarning rel'efi va foydali qazilmalarini o'rganish metodikasi.

O'quv darslarida qo'llanilgan metodika (ped.texnologiya): "INSeRT"

Insert – samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matni belgilash tizimi

(V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi, (+) - yangi ma`lumot, (-) – men bilgan narsaga zid,

(-) – meni o`ylantirdi. Bu borada menga qo`shimcha ma`lumot zarur

Insert jadvali

Tushunchalar	+	-	?
Iqlim mintaqalari			
Havo massalari			
Passat oqimlari			
Yog'in miqdori			
Harorat			
Iqlim o'lkalari			

2.3 Materiklarning iqlimi va ichki suvlarini o`rganish metodikasi.

Har bir materik geografik o`rniga ko`ra hilma-hilligi tufayli iqlim jihatdan ham bir-biridan keskin farq qiladi. Ulardagi iqlim hosil qiluvchi omillar ham bir-biriga o`xshamaydi. Bularning barchasi materiklarda o`ziga xos iqlim mintaqalari hosil bo`lishiga olib keladi.

Dasturda materiklar xududidagi iqlim xususiyatlari, iqlim mintaqalari va oblastlarini o`quvchilarning egallashi zaruriy bilim sifatida kabul qilingan. Bu erda asosiy masala har bir materik iqlimining qaysi xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qilishini erkin misollar asosida tushuntirish maqsadga muvofiq iqlim hosil qiluvchi omillarning materiklar bo`yida farqini turli hil misollar asosida yoritish kerak. O`quvchilarda materiklardagi iqlim mintaqalarini kartadan topa olish ko`nikmalarini shakllantirishga e`tibor berish zarur.

Afrika iqlimini o`rinishda passatlar, Yevrosiyoni o`rganishda musson tushunchalari berilgan. Bunday iqlim tushunchalari bilan tanishtirish o`quvchilarni har bir hududning o`ziga xos iqlim xususiyatlari mavjud ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Materiklardagi iqlim mintaqalari va ob`lastlari haqidagi yaqqol ma`lumotlar iqlim haqidagi maxsus kartalarni o`qish va o`rganish asosida paydo bo`ladi. Iqlim hosil qiluvchi omillar haqidagi bilimlar ko`proq iqlim va umumiy tabiiy kartalarni qiyoslash asosida shakllanadi.

O`quvchilarni materik ayrim xududlari va nuqtalarning iqlimini turli hil manbalar asosida tarif Bera olishga o`rgatish zarur. Iqlimni o`rganishda va unga turli mazmundagi kartalar asosida tarif berishda tayyor rejalarining o`rni va roli katta. Iqlimni tariflashga oid bo`lgan bunday rejalarda quyidagi savol va topshiriqlar bo`lishi mumkin.

1. qaysi iqlim mintaqalarida joylashgan?
2. materikning u yoki bu kismalarida yanvar va iyulning o`rtacha harorati.
3. materik qismlarida yil fasllari bo`yicha yog`inlar taksimlanishi.
4. materikning qaysi qismlarida yillik amplituda yuqori sababini aniqlang.
5. qaysi havo massalari hukmron.

Darsning keyingi bosqichlarida iqlimga oid raqamli materiallar, jadvallar kartalarini taxlil qilish orkali iqlim tiplarini aniqlash vazifasi topshiriladi. Bunday vazifalarni har bir materik misolida bajarish o`quvchilarda iqlim mavzusiga oid tushunchalarning ko`nikma darajasiga ko`tarilishiga yordam beradi.

Shu mavzudagi tayyor misollarni har bir materikni o`rganganda bajarish o`quvchilarda iqlimga oid bilim va ko`nikmalarning yanada mustahkam bo`lishini taminlaydi. Materikdagi iqlim mintaqalarini jadvallar tarzida o`rganish o`quvchilarni mustakil bilim olishga o`rgatadi. Bunday jadvallar taxminan quyidagicha bo`lishi mumkin.

Materik-dagi iqlim mintaka-lari	Materik-ning qaysi qismlarini egal-laydi	Yanvar harorati	Iyul harorati	Yogin miqdori	Qanday ekinlar etishtirish mumkin
1. 2.va.h.k.					

Jadvallarni to`ldirish har bir materikni o`rganishda izchil bilishi kerak. Faqat shundagina iqlimiga xos tushunchalarning mustahkam egallashga sharoit tug`iladi.

O`quvchilar kartalar, jadvallar asosida iqlim tiplarini aniklashni o`rgangandan keyin ularni xudud iqlimiga oid bo`lgan «kartochka topshiriqlar» orkali iqlim tiplarini aniklash vazifalari topshiriladi.

Hulosa qilib shuni aytish kerakki har kanday materik yoki uning biror qismi iqlimi quyidagi omillarga bog`liq ekanligini o`quvchilar misollar asosida bilib oladilar.

- 1.xudud yoki materikning kattaligi.
2. materik yoki uning qismini okean va dengizlardan uzoq yokinligi.
3. iqlim hosil bo`lishida rel`efning o`rni.
4. okean oqimlarining uzoq yaqinligi.
- 5.hukmron havo massalarining xususiyati.

O`qituvchi yuqoridagi sabab omillar har bir materik va xududda turlicha ta`sir qilishini, bu omillarning bittasi kuchliroq ta`sir ko`rsatsa ikkinchi materikda xuddi shu omil zaifroq ta`sir qilishi mumkinligini yorqin misollar asosida ochib berishi kerak.

Iqlim tiplarini aniqlash bo`yicha jadval tarzidagi topshiriklarni bajarish materiklar va ularning qismlari iqlimini o`rganishda katta ahamiyatga ega. O`quvchilarga Yevrosiyo materigida joylashgan shaharlarning iqlimiga xos ma`lumotlar jadvalda beriladi. O`quvchilarning vazifasi o`sha shaharlarning qaysi iqlim mintaqasida joylashganligini aniqlashlari kerak.

shaharlar	O`rtacha harorat		Yillik yogin miqdori	Qaysi iqlim tipiga mansub
	Yanvar`	iyul`		
1.London	+4	+17	750	
2.Moskva	-10	+19	600	
3.Toshkent	-2	+27	400	
4.Tokio	+5	+25	800	
5.va.h.k.				

Materiklar iqlimini mustahkamlash materiklarni qiyoslash va hulosalar chiqarish hamda yer shari iqlim mintaqalarini doiraviy shaklda joylashishini namoyish qilish bilan yakunlanadi.

Materiklar iqlimini o`rganib bo`lgach yoki yil yakunida materikning yoki sayyoramizning iqlim mintaqalari mavzusida geografik diktant o`tkazish maqsadga muvofiq. Diktant tahminan quyidagicha bo`lishi mumkin. O`quvchilar diktantdagi har bir punktiga javob topishlari talab qilinadi va o`quvchilar bilimi baholanadi.

Materik iqlimiga tavsif.

1. Iqlim hosil qiluvchi omillar tahlili:

a) Kenglikning ta`siri

b) O`rab turgan dengiz, okean, okean oqimlari ta`siri.

v) Materik o`rnining atmosfera umumiy tsirkul`yatsiyasiga ta`sir xukmron havo massalari ularning xususiyati, yo`nalishi.

g) Rel`efning harorat va yog`inlar taqsimlanishiga ta`siri.

2.Materik xududida yog`in va haroratlar taqsimlanishida rel`efning ro`li.

3. Materik qaysi iqlim mintaqalarida joylashgan.

4.Iqlim mintaqalariga tavsif.

a)Materik qismlari qaysi iqlim mintaqasida joylashgan.

b) Yoz va qishdagi haroratlar

v) Yillik yog`in miqdori va ularning fasllar bo`yicha taqsimlanishi

g)Iqlim mintaqasidagi ichki xususiyatlar.

5.Iqlim xususiyatlari haqidagi umumiy tushunchalar.

Tabiiy ob`lastlarga TTK larga tavsif.

1. Geografik o`rni va uni baholash.
2. Relefi uning er po`sti tuzilishi bilan bog`liqligi.
3. Hududning foydali qazilmalari.
4. Iqlim xususiyatlari. Iqlim hosil qiluvchi omillar.
5. Ichki suvlari uning rel`ef va iqlimga bog`liqligi.
6. Tuprok o`simlik xususiyatlari.
7. Hayvonat dunyosi.
8. Aholisi ularning etnik xususiyatlari, irqiy tarkibi, xalqlari, turmish tarzi, xo`jalik faoliyati.

Biz materiklar geografiyasida geografik ob`ektlarning 4 ta turiga ta`rif rejasini keltirdik. Kurs mazmunida bunday rejalarni unlab keltirish mumkin. Masalan: tabiat zonalari, ichki suvlari rejalari va h.k.

Bunday rejarlar asosida o`quvchilar mustaqil ishlash ko`nikmalariga ega bo`ladi.

Materiklarning ichki so`vlarini o`rganish metodikasi.

Materikning ichki suvlarini o`rganish orqali o`quvchilar quyidagi bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishi kerak.

1. Rel`ef va iqlimning daryolarning joylashishiga ta`sirini.
2. Materikdagi daryo va ko`llarga xos bo`lgan umumiy xususiyatlar.
3. Kartadan daryolarni oqish tomonini va manbasini.
4. Ko`llarni joylashishi va tiplarini.
5. Daryolar rejimini va to`yinish tiplarini.
6. Materiklarda joylashgan daryo va ko`llarga xos bo`lgan muhim xususiyatlarini.
7. Karta va boshqa manbalar asosida daryo va ko`llarga reja asosida tarif bera olishlari va h.k.

Materikning ichki suvlarini o`rganish bo`yicha o`quvchilarda tayanch bilimlar mavjudligini e`tiborga olib mashg`ulotlarni olib borish va eng maqbul metodlarni tanlash zarur. Bunda etakchi metodlar sifatida savol javob, suhbat karta bilan Amaliy ishlarni tanlash samarali natijalar beradi.

Daryoni materikdagi daryo va ko`llarning umumiy xususiyatlardan boshlab, keyin alohida daryo va ko`llarga tarif berishdan ya`ni deduktiv metod bilan boshlash zarur. Bu erda induktiv metodni ya`ni avvalo alohida daryo va ko`llarga tarif berishdan boshlasa ham bo`ladi.

O`quvchi 5-sinfidagi ko`pchilik tushunchalarni mansab, manba, irmoq delta, havza, daryo sistemasi kabi o`nlab tushunchalarni takrorlaydi va ularni mustahkamlaydi. Materiklardagi daryo va ko`llarni albatta tabiiy kartada savol-javob tarzida boshlash maqsadga muvofiq. Savol-javob asosida materikdagi daryolarning qaerdan boshlanishi, qaysi dengizga quyilishi kabi ko`plab narsalarni aniqlaydi va karta asosida quyidagi jadvalni mustaqil to`ldirishni tavsiya qiladi.

Jadval 3

Materikdagi daryolar nomi	Qaysi tog`lardan boshlanadi	Kaysi havzaga quyadi	Okim xususiyati. Qaysi tomonga oqadi	Rejimi, to`yinishi
---------------------------	-----------------------------	----------------------	--------------------------------------	--------------------

O`quvchilar ichki suvlar haqida ma`lum bilimlar tizimiga ega bo`lgach daryoga tarif berish rejasi bo`yicha ularni mustaqil o`rganishni davom qildiradilar.

Daryoga tarif berish rejasi taxminan quyidagicha bo`lishi mumkin.

- 1.daryo nomi.
- 2.qaerdan boshlanadi.
- 3.qaerga quyadi.
- 4.qanday irmoqlarga ega.
- 5.qaysi okean havzasiga mansub.
- 6.qaysi yo`nalishda oqadi.
- 7.tog` daryosimi yoki tekislik.

- 8.daryo uzunligi.
- 9.hvzasining kattaligi.
- 10.nimalardan to`yinadi.
- 11.toshishi va suvining kamayish davrlari.
- 12.muzlash davri.
- 13.xo`jalikdagi ahamiyati.
- 14.kemalar qatnovi.

Ko`lga tavsif yozish quyidagicha bo`lishi mumkin.

- 1.ko`l nomi.
- 2.geografik o`rni (geografik koordinatalari)
- 3.kattaligi, maydoni.
- 4.ko`l atrofidagi rel`ef shakllari.
- 5.o`rtacha chuqurligi.
- 6.oqar yoki oqmasligi.
- 7.kelib chiqishiga ko`ra turi.
- 8.qaysi daryolar quyadi.
- 9.qaysi daryolar oqib chiqadi.
- 10.suvining sho`r yoki chuchikligi.
- 11.muzlashi.
- 12.xo`jalikdagi ro`li.
- 13.qirg`ok tuzilishi.
- 14.qaysi iqlim mintakasida joylashgan.
- 15.qaysi davlat xududida.

O`quvchilar tabiiy geografiya boshlang`ich kursidan tabiiy kartalar bilan ishlash ko`nikmasiga ega ekanligini e`tiborga olib, materik yoki xudud ichki suvlariga oid ma`lumotlarni o`quvchilarning mustaqil ravishda egallashiga etibor berish zarur.

O`quvchilar daryolarning qaysi tomonga oqishi, uning irmoqlari, uning oqimining rel`efga bog`liqligi, oqish xarakteri (tog` yoki tekislik daryosi

ekanligi) kabi ko`plab ma`lumotlarni kartalardan oladilar. Kartadan daryolarning kaysi iqlim mintakalardan oqishi, ularning muzlashi bilan bog`liq bo`lgan jarayonlarni ham aniqlasa bo`ladi.

Ko`llar haqidagi ayrim ma`lumotlarni huddi shu tartibda tabiiy va boshqa kartalardan olish mumkin. Kartalardan olish imkoniyati bo`lmagan bilimlarni o`qituvchi to`ldirib beradi. Bunday bilimlar ko`l va daryolarning inson xo`jalik faoliyatidagi ro`li qurilgan va qurilishga mo`ljallangan gidrotexnika inshootlari haqidagi va boshka ma`lumotlarni o`qituvchi rahbarligida amalga oshirish samarali natijalar beradi.

O`quvchilar qo`rish, his qilish imkoniyatiga ega bo`lmagan ayrim ma`lumotlarni, masalan daryolar kengligi, suvning rangi qirg`oqlari tuzilishi, ulardagi o`simliklar va hayvonot dunyosi va boshqalarga oid bo`lgan materiallarni ilyustrativ rasmlar, kinofil`mlar, videofil`mlar orqali ko`rishlari va namoyish etishlari mumkin. Ayrim ko`llar va daryolar haqidagi bilimlar mustaqil uy vazifasi sifatida ham bajarilishi mumkin.

Bilimlarni mustahkamlash maqsadida daryo va ko`llarni turli belgilariga ko`ra qiyoslovchi jadvallarni mustaqil to`ldirish vazifalarini berish ham mumkin. Masalan: Afrikadagi Kongo va Yevrosiyodagi Yantszi daryolarini qiyoslang.

Jadval № 4

Daryo-lar	Uzun-ligi	Yuna-lishi	Qaysi havzaga mansub	Oqim xarak-teri	Reji-mi	To`yi-nishi	Qaysi iqlim mintaka-sida
Kongo							
Yantszi							

Daryolarni bunday qiyoslash o`quvchilarning nafaqat bilimlarining mustahkam bo`lishini, balki ular egallagan bilimlarining sistemali bo`lishini ham taminlaydi.

**Ma'ruza. Afrika materigi iqlim mintaqalari va ichki suvlari
ma'ruzasi ta'lim texnologiyasi.**

<i>Vaqt – 2 soat</i>	O`quvchilar soni 30 nafar.
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	Axborot, vizual ma'ruza, «Insert», texnikasini qo`llagan holda
<i>O`quv mashg`ulotining rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Afrika materigi iqlim hosil qiluvchi omillari. 2. Afrika iqlim mintaqalarining bo`linishi va havo harorati, yog`in sochinlar, havo massalari va iqlim oblastlarining taqsimlanish xususiyatlari. 3. Afrika materigida ichki suvlarning bo`linishi va daryo, ko`l va muzliklarning to`yinishi rejimi inson xo`jalik faoliyatidagi ahamiyati.
<p>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</p> <p>Materik iqlimining iqlimga ta`sir etuvchi omillar, o`ziga xos xususiyatlari, iqlim mintaqalarida xavo temperaturalar, yog`in sochinlar va xavo massalarining tarqalishini o`rganish va tahlil qilish. Materik ichki suvlarining tarqalishi, daryo, ko`l va muzliklarning to`yinishi rejimi inson xo`jalik faoliyatidagi ahamiyati. to`g`risida ma`lumot beriladi.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O`zaro o`qish uchun sharoitlarni tashkil etish; 2. Afrika materigi iqlim mintaqalari haqida ma`lumot berish va kartada ko`rsatish; 3. Afrika materigi va ichki suvlari haqida ma`lumot berish; 4. Iqlim mintaqalari, tabiat zonalari va landshaft tiplari xaqidagi bilimlarni rivojlantirish; 5. Afrika materigi ichki so`vlarinig taqsimlanishi haqida ma`lumot berish; 6. Afrika materigi daryo, ko`l va muzliklarning inson xo`jalik faoliyatidagi ahamiyatini tushintirish; 	<p>O`quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Talaba:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Materik iqlimi hosil bo`lishi to`g`risidagi ma`lumotlar bera oladilar; 2. Materik iqlim mintaq va oblastlari haqida umumiy tushunchalar bera oladilar; 3. Iqlim mintaqalarining o`lkalarga ajralish sabablarining o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida ma`lumot bera oladilar; 4. Afrika materigi ichki suvlarinig taqsimlanishi va turlari to`g`risida ma`lumot bera oladilar; 5. Materik daryolariga umumiy tavsif bera oladi va kartada ko`rsatadi; 6. Afrika materigi daryo va ko`llari haqida ma`lumot bera oladilar;
<i>O`qitish uslubi va texnikasi</i>	Munozarali ma'ruza, insert, keys, aqliy hujum, blits-so`rov
<i>O`qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, taqdimot uchun varaqlar, proektor, doska, bo`r, karta.

<i>O'qitish shakli</i>	Juftlikda ishlash, guruhiy.
<i>O'qitish sharoitlari</i>	Guruxlarda ishlash uchun moslashtirilgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: blits-so'rov, nazorat savollari.

2. Afrika materigi iqlim mintaqalari va ichki suvlari.

O`quv darslarida qo`llanilgan metodika (ped.texnologiya): “Fikrlarning shiddatli hujumi”

Ushbu ma`ruzada Afrika materigi geografik joylashgan o`rni, iqlim mintaqalarining hosil bo`lishi, mintaqa oblastlarga bo`linishi, tabiat zonalarining tarqalish qonuniyatlari va o`ziga hos xususiyatlari kabi ma`lumotlar etkaziladi.

«Fikrlarning shiddatli hujumi»- destruktiv berilgan baho bilan dialog. Bu metod e. Aleksandrov tomonidan taklif qilingan va G.Ya. Bush tomonidan o`zgartirilib yo`lga qo`yilgan. Dialogning mohiyati shundaki, kollektiv bo`lib g`oyalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g`oyalar qo`yiladi.

Mashg`ulot bosqichma-bosqich quyidagi tarzda o`tkaziladi:

1- bosqich: Mikdor va psixologik muloqoti jihatidan maqbul kichik guruhlarni shakllantirish.

2- bosqich: Vazifa, muammodan kelib chiqadigan maqsadlarni ifodalash.

3- bosqich: To`g`ridan-to`g`ri «Fikrlar hujumi» qoidasiga asosan har bir guruhda g`oyalar ishlab chiqish.

4- bosqich: G`oyalarni tartibga solish va tasniflash.

5- bosqich: G`oyalarni destruktivlash, ya`ni amalga oshishi imkoniyatiga qarab baholash.

6- bosqich. Avvalgi bosqichlarda bildirilgan tanqidiy mulohazalarga baho berish.

I guruh vazifasi:

Masala. Afrika materigi geografik joylashgan o`rniga umumiy ta`rif berildi.

Afrika materigida iqlim mintaqalari hosil qiladigan asosiy omillar hakida aytili.

Afrika iqlim mintaqalariga qanday okean va passat oqimlarining ta`sirini bilasiz?

Afrika iqlim mintaqalariga qanday atmosfera tsirkulyatsiyasi ta`sirini bilasiz?

II guruh vazifasi:

Masala. Afrika iqlim mintaqalarining taqsimlanishi va tabiat zonalariga bo`linish xususiyatlari to`g`risida ma`lumotlar berildi.

Afrika iqlim mintaqalarining materik xududida geografik joylanishi va o`ziga xosliklar gapirildi.

Afrika iqlim mintaqalari qanday tabiat zonalariga bo`linishi to`g`risida ma`lumot bering?

Afrika tabiat zonalarining inson xo`jalik faoliyatiga ta`siri haqida tushuncha bering?

III guruh vazifasi

Masala. Afrika materigi iqlim mintaqalarida havo xarorati, yog`in sochinlarning taqsimlanishiga ta`rif beriladi.

Afrika materigida havo haroratining taqsimlanish xususiyatlari farqli jihatlari haqida ma`lumot berildi

Afrika materigida yog`in sochinlarning taqsimlanish xususiyatlari farqli jihatlari haqida ma`lumot berildi

IV guruh vazifasi:

Masala. Afrika ichki suvlarining geografik taqsimlanishi va xavzalarga bo`linishi

- 1) Afrika materigi ichki suvlarining okean dengiz basseynlariga bo`linishi.
- 2) Afrika daryolarining geografik joylashuvi, irmoqlari, rejimi, tuyinishi va sharsharalari.
- 3) Afrika ko`llarining geografik joylashuvi, kelib chiqishi inson xo`jalik faoliyatiga ta`siri.

Ishtirokchilar: 1) g`oyalar ishlab chiquvchi; 2) muammoli vaziyatni tahlil qilish va g`oyalarni baholovchi; 3) zid (qarshi) g`oyalarni ishlab chiquvchi guruhlariga bo`linadigan bo`lsa samarali natijaga erishish mumkin. 4) Keyingi davrlarda «Yashirin fikrlarning shiddatli hujumi» shaklidagi metod keng rivojlanmokka.

2.4. Materiklarning tabiat zonalarini o`rganish metodikasi.

Har bir materik yoki kattaroq hudud har hil tabiiy sharoitlarga egaligi to`g`risida o`ziga xos zonalarga ega. O`quvchilar tabiat zonalari tushunchasi bilan 5-sinf kursida tanishadi. Afrika materigini o`rganishda o`quvchilar dastlab materiklarni o`rganishda tabiat zonalarini ko`rib chiqadi. Materik tabiat zonalariga tegishli bo`lgan ko`plagan bilimlar tuproq kartasi tabiat zonalari kartalarida mavjud bo`lib ularni o`quvchilar mustaqil egallashi mumkin.

Barcha materikdagi (Antarktidadan boshqa) tabiat zonalarini o`rganish natijasida o`quvchilar yarimsharlar tabiat zonalari kartasida ularning geografik o`rinlarini ko`rsata olishi, tuproq, o`simligi, hayvonot dunyosiga mos bo`lgan o`zgachliklarni ajrata olishi zarur. Shu bilan tabiat zonasi orasidagi bog`liqlik materikdagi tabiat zonasining o`simliklari, hayvonot dunyosi tuproqdan foydalanish darajasi haqidagi ma`lumotlarni bilib olishlari maqsadga muvofiqdir.

Tabiat zonasi umumiy tushunchalar materikdan materikka o`tgan sari murakkablashib boradi. Materikdagi tabiat zonalarini o`rganishga kirishdan oldin o`quvchilar diqqatiga quyidagi jadval ko`rsatiladi. O`quvchilar bu jadvalni tabiat zonalarini o`rganish jarayonida o`qituvchi boshchiligida to`ldirib boradi.

Jadval № 5

Materikdagi tabiat zonalarining nomlari.	Geografik urni.	Iqlimi.	To`p rog`i .	O`siml iklari.	Hayvonot dunyosi.	Tipik o`zgachali klari.	Tabiatni asrash muammolar i.
1.							
2.va.h.k.							

O`quvchilar bu jadvalni darslik karta va boshqa ish vositalari orqali to`ldirib borishi tabiat zonasi tushunchasi uchun tegishli bo`lgan belgilarni mustaxkam o`rganishiga sharoit yaratiladi. Har bir tabiat zonasini alohida o`rganish orqali ularga tegishli bo`lgan o`zgachaliklarni chuqurroq o`rganish imkoniyatini beradi.

O`quvchilar tabiat zonalarini o`rganish jarayonida er shari tabiat zonalarini, iqlim kartasi va yarımsharlar tabiiy kartalarini kiyoslab borishi maqsadga muvofiqdir. Iqlim kartasidagi u yoki bu hudud qanday tabiat zonalarida joylashuvi va uning sababini kartalar asosida qiyoslab ochib berishi, tabiat zonalaridagi sabab bog`liqlikni ochib berish imkoniga ega bo`ladi.

Tabiat zonasidagi tuproq, o`simlik, hayvonot dunyosini o`rganishda har bir zonaga tegishli bo`lgan o`zgachaliklarini ko`rsatish maqsadga muvofiqdar. Asosan ulardagi o`simlik va hayvonlarning tashqi ko`rinishi ochib berilishi ularni oson sezishni engillishtiradi. Materik tabiat zonalarini o`rganishda ular ichida yaqqol ajralib turadigan va zonalarining ichida eng katta hududga ega bo`lgan zonani saralab o`rganish zarur. Shunday qilinsa boshqa materiklardagi tabiat zonalarini chuqurroq o`rganish uchun asos yaraladi.

Asosan zonalarini o`rganishda uni oldingi o`rganilgan zona bilan va boshqa materikdagi shu zona bilan qiyoslab o`rganish samarali natijalar beradi. Asosan zonalarga tegishli bo`lgan o`zgachaliklarni ochib berishda qiziqarli masalalarni keltirish o`quvchilarning darsda faolligini oshiradi. Masalan : Afrika materigindagi Savannalar va siyrak o`rmonlar uchun tipik bo`lgan Baobab daraxtini kuyidagicha ta`riflab berish yaxshi natijalar beradi.

Olimlarning hisob-kitoblariga ko`ra daraxt 4-5 ming yil yashashi bilan birga sayyoramizdagi eng {baquvvat} daraxtlardan biri hisoblanadi. Daraxt chanbari 20-40 metrga etadi. Lekin uning bo`yi 45 metrdan oshmaydi. Salqin ob havoda uning yashilligi oshadi. Issiq paytda barglarini to`kadi, buning sababi tanasidagi namlikni saqlash uchun. Baobab olovda yonmaydi lekin ularning dushmani fillar hisoblanadi, sababi fil uning namli va kal`tsiyga boy barglarini yahshi tanavvul qiladi. Uning mevalari quruq mavsumda pishadi va maymunlar uchun oziq

hisoblanadi, mevasidan odamlar kraxmal olib tandirda non yopadi. Mevalari qobiqlaridan musiqa asboblari tayorlanadi. Baobab urug'i dori sifatida ko'plagan kasalliklarni emlashda foydalaniladi. Qobiqlaridan tolchaqlar olinib gitaraga tor va xo'jalikda arqan ip iyigirishda ishlatiladi.

Tabiat zonalari uchun material tanglashda faqat shu zona uchun tegishli bo'lishiga e'tibor berish kerak. Bundan tashqari tanlangan tuproq o'simlik, hayvon turlari mumkin bo'lganicha shu materik uchun tegishli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Masalan Afrikaning ekvatorial va tropik o'rmonlari uchun yog'li Pal'ma, Begemot, Tsetse pashshasi xos bo'lsa, Janubiy Afrika materigida joylashgan ekvatorial o'rmonlar uchun xos bo'lgan ayrim turlarini aytish mumkin. Masalan: Tapir, Shokolad daraxti va h. k. Har zona uchun mos bo'lgan o'zgachaliklarini kuyidagi jadvalni to'ldirish orqali ajratish maqsadga muvofiq keladi.

Jadval № 6

Tabiat zonalari	Afrika			Janubiy Amerika		
	O'simliklari	Tuproqlari	Hayvonot dunyosi	O'simliklari	Tuproqlari	Hayvonlari
1. Namli ekvatorial O'rmon zonasi 2. Savannalar va siyrak o'rmonlar zonasi. 3. Subtropik o'rmonlar zonasi..						

Bunaqa qiyoslovchi jadvalni to'ldirish tabiat zonalari mustaxkam esda saqlashga yordam beradi va zonalarga hos bo'lgan eng tipik tuproq, o'simlik, hayvonlarni bilishga yordam beradi.

Darsning mustaxkamlash bo'limida tabiat zonasiga mos bo'lgan o'simlik va hayvonlar nomlari aralashtirilib beriladi. O'quvchilar nomi berilgan bu o'simlik va hayvonlarning qaysi zonaga tegishli ekanligini ko'rsatishi va yozishi kerak.

O`simliklar nomi	O`simlikga mos turlari	O`simlik tiplari	Eng kerakli o`simliklar
------------------	------------------------	------------------	-------------------------

Hayvonlarga va o`simliklarga mos o`zgachaliklar to`liq va har tamonlama bo`lishiga e`tibor berishi zarur. Tabiat zonalarining o`simlik va hayvonot dunyosiga shu tarzda javob berish tashkillashtirilsa kursni o`qitish davomida ko`p shunday o`simlik va hayvonlarni bilib olish imkoniga ega bo`linadi.

Asosan J. I. Kustoning kinofil`mlarini har turli rasmlar, diapozitivlar, gerbariylarni ko`rsatish orqali va ko`plab hayvonlar va o`simliklarning o`zgachaliklarini, ularning nomlarini bilib olish mumkin.

O`quvchilarga nima sababdan u yoki bu tabiat zonasida aynan shu o`simlikning o`sishi yoki hayvonning yashashi sabablarini tushintirish kerak. Masalan: Nima sababdan bu zonada doymiy yashil bargli daraxtlar o`sadi Nima sababdan tropik o`rmonlarda juda katta bargli daraxtlar o`sadi Nima sababdan Savannalar hayvonot dunyosiga juda boy Laterit va Qizil tuproqlarning o`zgachaliklarini ayting v. h. k.

O`quvchilarga o`simlik va hayvonlarning tashqi ko`rinishlarini esda saqlash maqsadida oz vaqtli o`yinlar tashkillashtiriladi. Uning uchun ikki konvertga materik tabiat zonasiga mos bo`lgan o`simlik, hayvonot dunyosidan beshtadan hayvon, o`simlik rasmlari qo`yiladi. Hoxlagan o`quvchilar chiqib konvert ichida nomlari yozilgan o`simlik va hayvonlar rasmlariga qisqa ta`rif berish talab etiladi. Kim tezda rasmdagi nomlarni to`liq va ularning qaysi tabiat zonalariga tegishli ekanligini aytsa shu o`quvchi g`alabaga erishgan hisoblanadi. Bunday o`yinlarni har bir materik tabiat zonalarini o`rganishda qo`llanish samarali natija berishini oldingi tajribalarda isbotlandi.

Tabiat zonasida insoning xo`jalik faoliyati misollar asosida ochib berilishiga alohida e`tibor berilishi zarur. Masalan` Afrikada daraxtlarni o`tqazish uni kesishga nisbatan 14 marta kam yoki materik maydonining 44 foizi quruqlik

zonalarida joylashganligi qanaqa oqibatlarga olib kelishini aniq misollar asosida aytib berish o`rinli.

O`quvchilar esida tabiat zonalarini chegaralarini mustaxkam egallashda yozuvsiz kartalarning ahamiyati katta.

Ma'ruza. Afrika materigi tabiat zonalarini va organik dunyosi ma'ruzasi ta'lim texnologiyasi.

<i>Vaqt - 2 soat</i>	O`quvchilar soni 30 nafar
<i>O`quv mashg`ulotlari shakli</i>	Ma'ruza - vizualizatsiya, aqliy hujum, blits-so'rov, taqqoslash jadvaliga asoslangan ma'ruza
Mashg`ulot rejasi	
<ol style="list-style-type: none"> 1. Afrika materigi iqlim mintaqalarida tabiat zonalarining taqsimlanishi. 2. Materikda tabiat zonalarining hosil bo`lish sharoitlari. 3. Ekvatorial va subekvatorial o`rmonlar zonasi. 4. Sernam subtropik o`rmonlar va subtropik yashil o`rmon va butozorlar. 5. Tropik o`rmonlar va savannalar zonasi. 6. Tropik va subtropik chalocho`llar va tropik cho`llar zonasi. 	
O`quv mashg`uloti maqsadi: Afrika materigining tabiat zonalarini va ularning iqlim mintaqalari buyicha taqsimlanishi, tabiat zonalarining hosil bo`lish sharoitlari okan oqimlarining ta`siri, tabiat zonalarida o`simlik va hayvonot dunyosining tarqalishi va joylashish xususiyatlari.	
Pedagogik vazifalar:	O`quv faoliyati natijalari:
<ol style="list-style-type: none"> 1. O`zaro o`qish uchun sharoitlarni tashkil etish; 2. Afrika materigi iqlim mintaqalarida tabiat zonalarining taqsimlanishi haqida ma'lumot berish va kartada ko'rsatish; 3. Ekvatorial va subekvatorial o`rmonlar zonasi bilan tanishtiriladi; 4. Sernam subtropik o`rmonlar va subtropik yashil o`rmon va 	<p style="text-align: center;">Talaba</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Afrika materigi iqlim mintaqalarida tabiat zonalarining taqsimlanishi haqida ma'lumot bera oladi va kartada ko'rsata oladi; 2. Ekvatorial va subekvatorial o`rmonlar zonasi haqida umumiy tushunchalar bera oladilar; 3. Sernam subtropik o`rmonlar va subtropik yashil o`rmon va butozorlar haqida umumiy tushunchalar bera oladilar;

<p>butozorlar bilan tushintirish;</p> <p>5. Tropik o`rmonlar va savannalar zonasi haqida ma'lumot berish va kartada ko'rsatish;</p> <p>6. Tropik va subtropik chalacho`llar va tropik cho`llar zonasi haqida ma'lumot berish va kartada ko'rsatish;</p> <p>7. Tabiat zonalarida o`simlik va hayvonot dunyosining tarqalishi va joylashish xususiyatlari.</p>	<p>4. Tropik o`rmonlar va savannalar zonasi haqida umumiy tushunchalar bera oladilar;</p> <p>5. Tropik va subtropik chalacho`llar va tropik cho`llar zonasi haqida umumiy tushunchalar bera oladilar;</p> <p>6. Tabiat zonalarida o`simlik va hayvonot dunyosining tarqalishi haqida umumiy tushunchalar bera oladilar;</p>
<ul style="list-style-type: none"> O`qitish usullari 	<p>Munozarali ma`ruza, insert, keys, aqliy hujum, blits-so`rov</p>
<p>O`qitish vositalari</p>	<p>Ma`ruza matni, taqdimot uchun varaqlar, proektor, doska, bo`r, karta.</p>
<p>O`qitish shakllari</p>	<p>Juftlikda ishlash, guruhiy.</p>
<ul style="list-style-type: none"> O`qitish sharoiti 	<p>Texnik vositalar bilan ta`minlangan o`quv xona.</p>
<ul style="list-style-type: none"> Monitoring va baholash 	<p>Og`zaki nazorat: diqqatni jalb qiluvchi savollar, jadvalni to`ldirish</p>

3. Materiklarning tabiat zonalarini o`rganish metodikasi

O`quv darslarida qo`llanilgan metodika (ped.texnologiya): muammoli o`qitish.

Muammoli o`qitish. Maqsadi - faol shaxsni tarbiyalash.

Vazifasi - faol bilish jarayoniga undash, ijodiy fikrni rivojlantirish, tanqid va tahlil qilish, muammoni echish usulini izlashga o`rgatish, tafakkurida ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish.

Muammoli vaziyatni yaratish metodikasi:

- Talabalar muammoning echimini o`zlari topishga urinadilar;
- Talabalar berilgan savolga har hil fikrlar bildiradilar;
- Fikrlar taqqoslanadi, umumlashadi va xulosa chiqariladi.

Muammoli o`qitishning shakllari:

- Ma`ruza yoki seminar darslarida o`quv materialini muammoli bayon etish;
- Bitiruv ishlarini bajarishda mustaqil tadqiqot faoliyati.

Muammoli vaziyat

1.Keys topshiriq bayoni: Afrikaning shimolida tropik cho`llar juda katta territoriyani egallagan. Cho`l va chala cho`l landshaftlari Atlantika okeanidan Qizil dengizgacha, Atlas tog`lari etagi va O`rta dengiz sohilidan, Senegal daryosi quyi oqimidan Chad ko`li orqali Nil daryosi bo`yidagi Xartum shahriga boradigan chiziqqacha bo`lgan maydonni egallagan. Maydoni taxminan 8,7 mln. km² bulgan ana shu katta territoriya umumiy nom bilan Sahroi Kabir deyiladi.

Keys topshirig`i:

Nima uchun Afrika materigida Sahroi Kabir cho`lining egallagan maydonini kengaymoqda?

Nima uchun Sahroi Kabir xududlarida yil davomida yog`in kam ko`zatiladi?

Afrika materigi shimolida joylashgan Sahroi Kabir cho`lining hosil bo`lishida qaysi omillar asosiy ta`sir ko`rsatishini bilasiz?

Javob: Quruqlikning asosiy sabablari shuki, Sahroi Kabir ustidagi dinamik maksimumda havo masallari pastga tushadi, bundan tashqari kondensatsiya satxi juda yuqori (5 km gacha) konvektiv oqimlar buncha balndlikda ko`tarilolmaydi. Sahroi Kabir jazirama bo`lganidan suv nixoyatda ko`p bug`lanadi. Yog`in-soshinning talaygina qismi er betiga etib kelmasdanoq bug`lanib ketadi. Shuning uchun namlanish koefitsenti amalda nol`ga barobar.

1-bosqich. Avvalo, keys-stadi bilan tanishing. Muammoli vaziyat haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo`lgan butun axborotni diqqat bilan o`qib chiqing.

O`qish paytida vaziyatni tahlil qilishga harakat qiling.

2-bosqich. Birinchi savolga javob bering.

3-bosqich. Ma`lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o`qib chiqing. Siz uchun muhim bo`lgan satrlarni quyidagi harflar yordamida belgilang:

“D” harfi – muammoni tasdiqlovchi dalillar,

“S” harfi – muammo sabablarini,

“O.O.Y.” harflari – muammoni oldini olish yo`llari.

Ushbu belgilar savollarga echim topishga yordam beradi.

4-bosqich. Yana bir bor savollarga javob berishga harakat qiling va individual echilgan keys-stadi vaziyatlar bilan tanishib chiqing.

5-bosqich. Guruh sardorini tanlang va vatman qog`ozlarda quyidagi jadvalni chizing.

Muammoni tahlil qilish va echish jadvali

Muammoni tasdiqlovchi dalillari	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muallif tomondan taklif qilingan echim	Guruh echimi
---------------------------------	----------------------------------	--	--------------

Bu kabi ta`lim texnologiyalari o`z mohiyatiga ko`ra «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» fani bo`yicha ta`lim oluvchilarda o`quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o`rganilayotgan mavzu, muammolar bo`yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o`z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g`oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag`batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA.

Mening bitiruv ishimda materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasi kursini o`qitishda “Kadrlarni tayyolashning milliy dasturi” talablari asosida qayta tuzulgan davlat standartlariga muvofiq o`qitishning o`ziga hos hususiyatlari, metodlari va uslublarini takomillashtirishda bir qancha masalalarni echishning samaradorligini ochirish yullari haqida bayon etildi.

Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasi kursini o`rganishda asosan suxbat (savol, javob) metodlaridan foydalaniladi. Bu metod materikning iqlimini va ichki suvlarini taqqoslashda yangi yoki umumiy tushinchalarni tushuntirishda qo`llaniladi. Har hil xududlarning o`hshash va farqli tamonlarini tushuntirish metodlari foydalaniladi. O`quvchilarda iqlim mintaqalariga doir ob`ektlarini tasavvur qilishda suhbatlashish metodlarini tanlash foydali.

Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasi kursi mazmunining asosi geografik ob`ektlarga baho berishdan iborat. Bu ob`ektlarga bog`liq ko`pgina bilimlar umumiy geografik va tematik kartalar bilan ishlash, ularni taqqoslash metodi yordamida tushunchalar hosil bo`ladi. Bu kursda qo`llaniladigan kartografik metodlar eng ahamiyatli metodlar xisoblanadi.

Materiklarning reliefi va foydali qazilmalarini o`rganishda reprodaktiv metod asosida o`quvchilarning mustaqil ishlashi uchun keng foydalaniladi Materiklarning tabiat zonalarini o`rganishda amaliy ishlarga ahamiyat qaratish lozim. Bunaqa ishlar o`quvchilarning kartalarni o`qib bilishi, geografik nomlarini, ob`ektlarni esda saqlashi kabi masalalardan iborat.

Materiklardagi iqlim mintaqalari va ob`lastlari haqidagi yaqqol ma`lumotlar iqlim haqidagi maxsus kartalarni o`qish va o`rganish asosida paydo bo`ladi. Iqlim hosil qiluvchi omillar haqidagi bilimlar ko`proq iqlim va umumiy tabiiy kartalarni qiyoslash asosida shakllanadi. O`quvchilarni materikning ayrim xududlari va nuqtalarning iqlimini turli hil manbalar asosida ta`rif bera olishga o`rgatish zarur. Iqlimni o`rganishda va unga turli

mazmundagi kartalar asosida ta`rif berishda tayyor rejalarning o`rni va ro`li katta.

Materiklarning ichki suvlarini o`rganish bo`yicha o`quvchilarda tayanch bilimlar mavjudligini e`tiborga olib mashg`ulotlarni olib borish va eng maqbul metodlarni tanlash zarur. Bunda etakchi metodlar sifatida interaktiv savol javob, suhbat karta bilan amaliy ishlarni tanlash samarali natijalar beradi.

Amerika davlati geografiya jamiyati kinofil`mlari bu mavzuni o`qitishda, amaliy laboratoriya ishlarini olib borishda zarur ma`lumotlarga ega. Shu sababdan hozirgi maktab bazasida komp`yuter sinflari bilan birga tabiiy geografik xonalarini tuzib bu erda videofil`m, kinofil`m, diafil`mlarni o`kuvchilar dars vaqtida tamosha qiladigan (video, SD, DVD kompakt koseta va disklari) jixozlari bilan ta`minlangan bo`lishi kerak.

Eski materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasini o`qitishning dasturiy uslublari bilan birga interaktiv metodlar va innavatsion texnologiya uslublarini joriy etish zamon talabi ekanligini har bir o`qituvchi o`z javobgarshiligiga olishi kerak.

Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasi kursining mavzularini o`rganishda o`quvchilarning mavzuga bo`lgan qiziqo`vchanligini va tushinchalarni shakllantirishda innavatsion texnologik metodlar, karta bo`yicha interaktiv uyinlar va albatta amaliy ish natijalari bo`yicha ekskursiya, videofil`mlar, Amerika geografiya jamiyati fil`mlari, Jak.Iv.Kusto tasvirlari yordamida tabiiy landshaftlarni o`rganish va baho berish eng ahamiyatli vazifalardan xisoblanadi.

Xulosa qilganimizda Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasini o`rganishda dars mobaynida qo`llaniladigan ta`lim metodlari hilma-hil va rang-barang bo`lishi kerak. Mavzuni o`kitishda aralash metodlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Asosan pedagogik texnologiya uslublaridan samarali foydalanganimizda o`quvchilarning chuqur bilim olishiga imkoniyat yaratgan bo`lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundali qoidasi bo’lishi kerak”- T.: O`zbekiston 2017.-103b
2. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. –T. Sharq. 1999. 182 b.
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori” (O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining IX sessiyalari so`zlagan nutqi. 1997 yil. 29-avgust. T. O`zbekiston. 1999 y.)
4. Azizxujaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent. 2003 y. 273 b.
5. Baranskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qitish metodlari. –Toshkent. O`qituvchi. 1990 y. 227 b.
6. Gaypova.R; Jiemuratova.G; Gaypov.B. Geografiyani o`qitishda innovatsiyon texnologiyalardan foydalanish usullari (Umum talim o`rta maktab o`quvchilari uchun mo`ljallangan metodik qo`llanma) Nukus Ajiniyaz nomidagi NDPI nashiriyati, 2016 yil
7. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar. T. «O`qituvchi». 1990. 69 b.
8. Farberman B. Ilg`or pedagogik texnologiyalar. T. «Fan». 2000. 127 b.
9. Darinskiy A. V. Metodika prepodovaniya geografii. M Prosveщenie 1975 g.
10. «Metodika obucheniya geografiya v sredney shkole». Pod. Red. I. S. Matrusova. M Prosveщenie 1983 g.
11. Metodika obucheniya geografiya v sredney shkole. Pod redaktsiey L. M. Pancheshnikovoy M. Prosveщenie 1983 g.
12. Muminov. O. Geografiya ta`limi metodikasi. Toshkent. O`qituvchi. 1966.y
13. Kurbaniozov R. Geografiya ta`limi metodikasi. Toshkent, Universitet 1992 y.
14. Ryabchikov.A.M.«Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov» .M.Выsshaya shkola 1988 g.

15. «Fizicheskaya geografiya mirovogo okeana». M. Izdatel`stvo Moskovskogo universiteta. 1988 g.
16. Ryabchikov.A .M. «Dunyo materiklari tabiiy geografiyasi».Toshkent.1986.
17. Vlasova.T.V.«Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov» Tom 1-2 . M. Prosveshenie 1986 g.
18. Vlasova.T.V. « Materiklar xam okeanlar tabiiy geografiyasi» Toshkent 1985 y.
19. Leontev.O.K «Fizicheskaya geografiya mirovogo okeana» M. 1982g.
20. Kalesnik.S.V. «Obuqie geograficheskie zakonomernosti Zemli». M. 1980g.
21. Ermakov Yu. G. .dr. «Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov». M. Vesshaya shkola.1988g.
22. Vaxabov.Q . «Umumiy er bilimi.» Toshkent 2005y.
23. Kurbaniozov R. «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi o`qitish metodikasi». Urganch 2000y .
24. Baratov.F .Mamatkulov.M «O`rta osiyo tabiiy geografiyasi». «Toshkent». 2001y.
25. Govorov.K.A. «Okeaniya fiziko-geograficheskiy xarakteristika» Moskva-1971g.
26. Abulqasimov.A . Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi. Toshkent 2001y.

Elektron resurslar

1. O`zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portali: www.gov.uz
2. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2004, UNDPDI: Programme www.lugat.uz, www.glossaiy.uz
3. O`zbek internet resurslarining katalogi: www.uz
4. Axborot resurs markazi <http://www.assc.uz/>
5. www.ziyonet.uz
6. www.edu.uz
7. www.tdpu.uz

HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI VA FAVQULOTDA VAZIYATLARDA FUQAROLARNI MUHOFAZA QILISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 19.07.2011 y. №208 sonli «Aholini yer qimirlashlar oqibatida paydo bo'ladigan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen turdagi) harakat qilishga tayyorlash kompleks dasturida tasdiqlash haqida»gi qarori, Yuqori va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 22.07.2011 y. №310 sonli buyrug'ini qo'lga olinib va o'rinlash maqsadida Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti rektorati buyrug'i (25.12.2012 y. №601 D/1) asosida «Hayot xavfsizligi» fani barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalarga oquv jarayonida o'rgatish uchun, magistrlik dissertatsiya ishi va bakalavr mutaxassislik bitiruv ishlarini bajarishda fanning huquqiy asoslari kiritildi.

“Jamiyatda fuqarolarning huquqlari va erinliklarini himoya qilish ta'minlanganda u chinakam huquqiy fuqarolik jamiyati bo'ladi. Har bir kishi o'z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi, o'z huquqi va erkinliklarini himoya qila olishi lozim. Buning uchun avvalo mamlakatimiz aholisining huquqiy madaniyatini oshirish zarur” (I. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda, 31 – bet).

XX asrning 60 – yillaridan boshlab faoliyat ko'rsatib kelgan fuqaro mudofaasi tizimining asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg'in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida xalq xo'jaligi ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash hamda halokat o'choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o'z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi.

Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg'in qurollari emas, balki boshqa xavf – xatarlar ham tahdid solib turadiki, ularni nazardan chetga qochirish aslo mumkin emas. Bular turli tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardir.

90 – yillarga kelib yadro urushi xavfi kamaydi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qo'yildi, yangi – yangi zamonaviy qurol turlari kashf qilindiki, ular odamlar uchun xavfli bo'lmay, balki iqtisodiyot ob'ektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bular hammasi fuqaro mudofaasi tizimi o'rnida yangi bir tizim tashkil etilishi lozimligini isbotlab berdi.

Fuqaro mudofaasi o'rnini bosishi mumkin bo'lgan yirik ko'lamdagi favqulodda vaziyatlarga avvaldan tayyorgarlikni ta'minlovchi yangi maxsus davlat tizimi egallishi, u tinchlik hamda urush davrida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishi lozim edi. Bu tizim aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o'tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarni: tabiiy ofatlardan xavfli hududlar xaritalarini tuzish, seysmik mustahkam bino va inshootlarni qurish, qisqa, o'rta va uzoq muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilishi va aholi tayyorligini amalga oshirishi lozim edi.

Shu o'rinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga to'g'ri keladi. Favqulodda vaziyatning o'zi nima, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani ko'zda tutishimiz lozim?

Favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoitini izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y – harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarni halqaga olib, xavfli omillar tasirini tugatishga qaratilgan avariya – qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan dadil qadamlardan biri – avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi PF – 1378 Farmoni** bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo'ldi.

Vazirlik faoliyat yurita boshlagandan so'ng aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining huquqiy asosini tashkil etuvchi bir qator qonuni va qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida (1999 yil 20 avgust) – 5 bo'lim va 27 moddadan iborat. Qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

Fuqaro muhofazasi to'g'risida (2000 yil 26 may) – 4 ta bo'lim va 23 moddadan iborat. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida (1999 yil 19 avgust) – 13 modda. Qonunda OITS/OIV kasalligining oldini olish sohasidagi davlat ta'minoti, kasallikning oldini olish bo'yicha faoliyatni moliyalash, fuqarolarning huquq va majburiyatlariga doir masalalar yoritilgan.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida (1999 yil 20 avgust) – 15 modda. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruktsiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida (2000 yil 31 avgust) – 28 modda. Ushbu qonunning maqsadi qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishni ta'minlash, o'simliklarni himoya qilish vositalarining insonli sog'lig'iga, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirining oldini olish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida (2000 yil 31 avgust) – 5 bo'lim va 28 moddadan iborat. Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol – mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida (2000 yil 15 dekabr) – 6 bo'lim va 31 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonuning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida (2006 yil 28 sentyabr) – 23 modda. Qonunning maqsadi xavfli ishlab chiqarish

ob'ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (1997-yil 27-dekabr) №558-sonli qarori «O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldin olish va ularda harakat etishda davlat tizimi haqida»gi qarori bilan be'kor etilib bu qaror qaytadan 2011 yil 24 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №242-sonli «O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda harakat etishdan davlat tizimi ishlarini bundan buyon takomillashtirish» haqida qarori bilan to'liqtirilib qayta chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (2011 yil 19 iyul) №208-sonli qarori «Aholini yer qimirlashlar natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen) harakat etishga o'rgatishning kompleks dasturini tasdiqlash» haqida qarori asosida barcha o'rinlarda favqulodda vaziyatlarda harakat etishning kompleks dasturlari ishlab shiqilib, oquv mashg'ulotlari olib borilmoqta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori:

Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora – tadbirlar to'g'risida (2007 yil 19 fevral, PQ – 585 – sonli). Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq ishlarni o'z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek ularning ehtimol tutilgan oqibatlarini tezkorlik bilan tugatish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida (1996 yil aprel, 143 – sonli). Qarorga «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risida»gi Nizom ilova qilingan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida (1997 yil 23 dekabr, 558 – sonli) qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) to'g'risidagi Nizom va uning tuzilmasi tasdiqlangan, vazirlik va idoralarning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funktsiyalari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida (1998 yil 7 oktyabr 427 – sonli) qaror mamlakat aholisi va hududini tabiiy va texnologen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomilashtirish maqsadida qabul qilingan. Qarorga ilova tarzida keltirilgan «Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o'tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

Tabiiy, texnogen va ekologik tisdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida (1998 yil 27 oktyabr, 455 – sonli). Qaror bilan tasdiqlangan tasnifga muvofiq favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablariga ko'ra texnogen, tabiiy va ekologik xususiyatli, Ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar sonliiga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga qarab lokal, mahalliy, respublika va transschegarali turlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora – tadbirlari to'g'risida (1996 yil 18 yanvar, 32 – sonli). Odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurash chora – tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek aholi yashash joylarida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida (2003 yil 13 yanvar, 15 – sonli). O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar

o'tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

Favqulodda vaziyatlarni bashoratlash va oldini olish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida (2007 yil 3 aprel, 71 – sonli). Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy xujjatlar asosida o'quv jaraenida talabalarga "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanining barcha yo'nalishlari bo'yicha keng manoda tushunchalar berildi.